O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Cho‘chqa go‘shti. Tanalar va bo‘laklar

(UNECE Standard for Porcine Meat – Carcases and Cuts - 2018, IDT)

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti
Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #NZO8J4IOUN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘zboshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan **ISHLAB CHIQILDI.**

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 21 iuyldagi 26/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan **TASDIQLANDI.**

3 Ushbu standart “**UNECE Standard for Porcine Meat – Carcases and Cuts**” xalqaro standartiga aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standart va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarida chop etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishlidir.

STANDARTLAR INSTITUTI#NZO8J4IOGN - 29.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

IZOH

Qishloq xo‘jaligi sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruh.

(BMTY) Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruhi tomonidan ishlab chiqilgan tijorat sifati standartlari xalqaro savdoni rivojlantirishga ko‘maklashadi, yuqori sifatli ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi, rentabellikni oshiradi hamda iste’molchilar manfaatlarini himoya qiladi. BMTY standartlaridan hukumatlar, ishlab chiqaruvchilar, savdogarlar, importerlar va eksporterlar, shuningdek, boshqa xalqaro tashkilotlar foydalanadi. Ushbu standartlar qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining keng turdagi ro‘yxatini, jumladan, yangi uzilgan meva va sabzavotlar, quruq va quritilgan mahsulotlar, urug‘lik kartoshka, go‘sht, kesilgan gullar, tuxum va tuxum mahsulotlarini qamrab oladi.

(BMTY) qishloq xo‘jaligi standartlari bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumotlarni bizning veb-saytimizdan olishingiz mumkin: http://www.unece.org/trade/agr>.

“Cho‘chqa go‘shti – Tanalar va bo‘laklar” standartning ushbu joriy nashri ECE/TRADE/C/WP.7/2011/5 hujjatiga asoslangan.

Ushbu nashrda qo‘llanilgan nomlar va materialning taqdim etilishi (BMTY) tomonidan biron-bir mamlakat, hudud, shahar yoki uning hokimiyat organlarining huquqiy maqomi yoxud ularning chegaralari yoki sarhadlarini belgilashga doir biron-bir fikrning ifodalanishini anglatmaydi. Korxona nomlari yoki tijorat mahsulotlarining eslatib o‘tilishi (BMTY) tomonidan ularni qo‘llab-quvvatlashni anglatmaydi.

Barcha materiallardan erkin iqtibos keltirilishi yoki ularni qayta chop etishga ruxsat beriladi, biroq manbaga havola ko‘rsatilishi so‘raladi.

Izohlar yoki so‘rovlar bo‘yicha quyidagi manzilga murojaat qilish so‘raladi:
Qishloq xo‘jaligi standartlari bo‘limi (Agricultural Standards Unit)
Iqtisodiy hamkorlik va savdo boshqarmasi (Economic Cooperation & Trade Division)
(BMTY)
Palais des Nations
CH-1211 Geneva 10, Switzerland
Tel: +41 22 917 1366
Fax: +41 22 917 0629
e-mail: agristandards@un.org

ECE/TRADE/369/REV.3

BMTY nashri
Sotuv raqami: E.03.II.E.59
ISBN 978-92-1-116886-0
ISSN 1810-1917

Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda standartning asli yozilgan tillarining biridan foydalanish tavsiya etiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #NZO8J4IOUN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

MINNATDORCHILIK

BMTY ushbu nashrni ishlab chiqishda qo‘shgan hissalari uchun quyidagi delegatsiyalarga minnatdorchilik bildiradi: Avstraliya, Boliviya, Braziliya, Xitoy, Yevropa Ittifoqi, Fransiya, Italiya, Niderlandiya, Yangi Zelandiya, Polsha, Rossiya Federatsiyasi, Amerika Qo‘shma Shtatlari va Urugvay. Shuningdek, GS1 va Go‘shtni qayta ishlash sanoati bo‘yicha Yevropa savdo assotsiatsiyasi vakillari ham ushbu nashrni tayyorlashda ishtirok etdilar.

BMTY, xususan, ushbu standart loyihasini tayyorlashgani va fotosuratlarni taqdim etishgani uchun Avstraliya, Amerika Qo‘shma Shtatlari va Polsha delegatsiyalariga alohida minnatdorchilik bildiradi.

STANDARTLAR INSTITUTI #NZO8J4IOUN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Mundarija

1 Kirish…… 1
1.1 Go‘sht mahsulotlari uchun (BMTY) standartlari…….. 1
1.2 Qo‘llanish sohasi…… 2
1.3 Tatbiq etilishi…… 2
1.4 Qabul qilinishi va nashr etilishi tarixi……. 3
2. Minimal talablar …… 3
3. Xaridor tomonidan belgilanadigan talablar..... 4
3.1 Qo‘shimcha talablar..... 4
3.2 Hayvon turi..... 4
3.3 Mahsulot/bo‘lak…….. 4
3.4 Sovitish..... …… 4
3.5 Yetishtirish tarixi……. 5
3.6 Yog‘ miqdorini cheklash va ayrim bo‘laklarda yog‘ qalinligini baholash……. 8
3.7 Cho‘chqa go‘shti sifati tizimi ……..……. 10
3.8 Go‘sht va yog‘ rangi, marmarlik darajasi va pH ko‘rsatkichi…….. 10
3.9 Bo‘laklar va bo‘laklarning vazn ko‘rsatkichi …… 11
3.10 Qadoqlash, saqlash va tashish ……. …… 11
3.11 Go‘shtning savdo birliklarida ko‘rsatiladigan yoki ularga biriktiriladigan tamg‘alash ma’lumotlari ……. 12
3.12 Muvofiqlikni baholash talablariga oid qoidalar …… 13
4. Cho‘chqa go‘shti uchun xaridor talablarining (BMTY kodi)……. 14
4.1 Kodning ta’rifi …… 14
4.2 Misol ……. 14
5. Tanalar va bo‘laklarning tavsiflari ……. 15
5.1 Mahsulotlarning ko‘p tilli ko‘rsatkichi ……. 15
5.2 Cho‘chqa yarim bo‘lagining skelet chizmasi ……. 15
5.3 Cho‘chqa go‘shtining birlamchi bo‘laklarga ajratish standart blok-chizmasi …… 15
5.4 Cho‘chqa go‘shti bo‘laklari……. 15

STANDARTLAR INSTITUTI #NZO8J4IOUN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

CHO‘CHQA GO‘SHTI. TANALAR VA BO‘LAKLAR

СВИНИНА. ТУШИ И ОТРУБЫ

FOR PORCINE MEAT. CARCASES AND CUTS

Amalga kiritish sanasi 2026-y. 1-avgustdan

I Kirish

1.1 Go‘sht mahsulotlari uchun (BMTY) standartlari

Go‘sht mahsulotlari bo‘yicha BMTY standartlarining maqsadi xaridorlar va sotuvchilar o‘rtasidagi savdo uchun xalqaro tilni tavsiya etish orqali savdoni rivojlantirishga ko‘maklash-ishdan iborat. Ushbu til xalqaro miqyosda odatda savdo qilinadigan go‘sht mahsulotlarini tavsi-flaydi hamda o‘zaro aloqa va elektron savdo uchun kodlash tizimini belgilaydi. Matnlar muntazam ravishda yangilanib boriladi. Go‘sht sanoati vakillari agar qo‘shimcha joylar zarur deb hisoblasalar yoki amaldagi pozitsiyalar noto‘g‘ri yorliqlangan yoxud savdodan chiqib ketgan bo‘lsa, BMTY kotibiyati bilan bog‘lanishlari so‘raladi.

Ushbu nashr matni (BMTY)ning Go‘shtni standartlashtirish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan bo‘limi shafeligida ishlab chiqilgan. Bu BMTY tomonidan ishlab chiqilgan yoki ishlab chiqilishi rejalashtirilayotgan go‘sht bo‘yicha standartlar turkumining bir qismidir.

Quyidagi jadvalda BMTY standartlari mavjud bo‘lgan yoki ishlab chiqilishining turli bosqichlarida turgan hayvon turlari hamda ularning BMTY go‘sht kodida (4-bo‘limga qarang) foydalaniladigan kodlari keltirilgan.

Qo‘shimcha ma’lumot olish uchun BMTY veb-saytiga tashrif buyuring: <www.unece.org/trade/agr>.

I ilova (qarang: www.unece.org/trade/agr) BMTY kodini joriy etish uchun maxsus qo‘llash identifikatorini o‘z ichiga olgan kodlash tizimining tavsifini qamrab oladi.

Hayvon turi	*(BMTY) hayvon kodi*
Yirik shohli qoramol (Mol go‘shti)	10
Yirik shohli qoramol (Buzoq go‘shti)	11
Kiyik go‘shti	20
Cho‘chqa (Cho‘chqa go‘shti)	30
Qo‘y (Qo‘y go‘shti)	40
Echki (Echki go‘shti)	50
Lyama go‘shti	60
Alpaka go‘shti	61

Rasmiy nashr

STANDARTLAR INSTITUTI #NZO8J4IOUN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Tovuq go‘shti	70
Kurka go‘shti	71
O‘rdak go‘shti	72
G‘oz go‘shti	73
Quyon go‘shti	74
Ot go‘shti (otlar)	80
Iste’molbop go‘sht qo‘shimcha go‘sht mahsulotlari	90
Chakana savdo uchun go‘sht bo‘laklari	91

1.2 Qo‘llanish sohasi

Ushbu standart inson iste’moli uchun yaroqli sifatida savdo chiqariladigan xom (qayta ishlanmagan) cho‘chqa go‘shti tushalari va bo‘laklari uchun xalqaro atamalar tizimini tavsiya etadi. U xaridorlarga xalqaro savdoda sotishga mo‘ljallangan go‘sht va go‘sht mahsulotlari bo‘yicha ilg‘or tijorat amaliyotiga muvofiq keladigan go‘shtga ishlov berish, qadoqlash hamda muvofiqlikni baholash bo‘yicha turli xil tanlovlarni taqdim etadi.

Cho‘chqa go‘shti tushalari va bo‘laklarini xalqaro chegaralar orqali sotish uchun oziq-ovqat mahsulotlarini standartlashtirish va veterinariya nazoratiga oid tegishli qonunchilik talablariga rioya qilinishi kerak. Ushbu standart boshqa normativ hujjatlarda qamrab olingan jihatlarni belgilashga da’vo qilmaydi. Standartning butun matni bo‘ylab bunday qoidalar milliy yoki xalqaro qonunchilikka yoxud import qiluvchi mamlakatning talablariga havola qilinadi.

Standart jo‘natishdan keyin sifatni saqlash hamda hukumatlarga oziq-ovqat gigiyenasi, tamg‘alash va ushbu standart doirasidan tashqariga chiqadigan boshqa masalalarning ayrim jihatlari bo‘yicha yo‘riqnomalar berish maqsadini ko‘zda tutuvchi boshqa xalqaro bitimlar, standartlar va amaliyot kodekslariga havolalarni o‘z ichiga oladi. Sog‘liqni saqlash va sanitariya talablari bo‘yicha xalqaro havola sifatida Kodeks Alimentarius Komissiyasi (Codex Alimentarius Commission) standartlari, yo‘riqnomalari va amaliyot kodekslariga murojaat qilinishi kerak.

1.3 Tatbiq etilishi

Yetkazib beruvchilar shartnoma va texnik shartlarning barcha talablariga javob beradigan mahsulotlarni yetkazib berish uchun javobgardirlar hamda ularga ushbu muvofiqlikni ta’minlashga mo‘ljallangan sifat boshqarish tizimini joriy etish tavsiya etiladi.

Mahsulotlarning shartnoma talablariga muvofiqligini ta’minlash uchun xaridorlar mahsulotning xaridor tomonidan tanlangan variantlarga mosligini tekshirish maqsadida mustaqil, xolis uchinchi tomon xizmatlaridan foydalanishni tanlashlari mumkin. Standart qoidalarni tushunishni osonlashtirish va xalqaro savdoda keng qo‘llanilishini ta’minlash uchun go‘sht tushalari hamda tanlangan tijorat qismlari/bo‘laklarining tushuntirishli fotosuratlarini o‘z ichiga oladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #NZO8J4IOUN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

1.4 Qabul qilinishi va nashr etilish tarixi

Ushbu standartning birinchi nashri 1998-yilda chop etilgan. Ikkinchi nashr standartni go‘sht bo‘yicha boshqa (BMTY) standartlariga muvofiqlashtirdi va Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruh tomonidan 2006-yilda o‘zining 62-sessiyasida qabul qilindi. Go‘shtni standartlashtirish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan bo‘lim tomonidan 2006-yildagi 15-sessiyada kelishilgan ikkinchi nashrda (ECE/TRADE/C/WP.7/2006/14 hujjatiga qarang) qabul qilingan asl matnga bir qator tahririy o‘zgartirishlar kiritildi. Standart boshqa standartlar bilan muvofiqlashtirish maqsadida besh bobni o‘z ichiga oladi. Ushbu muvofiqlashtirish, shuningdek, cho‘chqa go‘shti kodidagi ma’lumotlar maydonlarining qayta tartiblanishini hamda tanalar va bo‘laklar tavsiflariga kiritilgan kichik tuzatishlarni ham qamrab olgan.

2013-yilda Standartning 2006-yilgi nashri yangilandi va Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruh tomonidan 2013-yil noyabr oyidagi 69-sessiyasida qabul qilindi (ECE/TRADE/C/WP.7/2013/4 hujjati). 2018-yilda Ishchi guruh o‘zining 74-sessiyasida Standartga o‘zgartirishlar qabul qildi (ECE/CTCS/WP.7/2018/7 hujjatiga qarang).

Go‘sht bo‘yicha (BMTY) standartlari nashr etilgandan keyin uch yil o‘tgach to‘liq qayta ko‘rib chiqiladi. Qayta ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra, zarurat tug‘ilganda yangi nashrlar chop etiladi. Shoshilinch e’tibor talab qiladigan o‘zgarishlar (BMTY) ning rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi: <www.unece.org/trade/agr/standards.htm>.

2. Minimal talablar

Barcha go‘sht mahsulotlari oziq-ovqat xavfsizligi va tekshiruvi bo‘yicha amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq muntazam ravishda faoliyat ko‘rsatadigan korxonalarda so‘yilgan hayvonlardan olingan bo‘lishi kerak.

Go‘sht tanalari/bo‘laklari quyidagicha bo‘lishi kerak:

• Butun (shikastlanmagan) bo‘lishi, bunda mahsulotning taqdim etilish shakli hisobga olinadi;

• Ko‘rinib turgan qon laxtalari yoki suyak kukunidan xoli bo‘lishi;

• Har qanday ko‘rinadigan yot moddalardan (masalan: loy, yog‘och, metall zarrachalari)[1] xoli bo‘lishi;

• Nohush hidlardan xoli bo‘lishi;

• Ko‘rinadigan qon quyilishlaridan xoli bo‘lishi;

• Ko‘zda tutilmagan turtib chiqqan yoki singan suyaklardan xoli bo‘lishi;

• Texnik shartlarda ko‘rsatilmagan, turtib chiqqan yoki singan suyaklardan xoli bo‘lishi;

• Muzlatishda hosil bo‘ladigan qurish belgilaridan xoli bo‘lishi[2];

Bo‘laklash, shakl berish va go‘shtni suyakdan ajratish jarayonlari bo‘lakning butunligini va o‘ziga xosligini saqlab qolish hamda lahm go‘sht yuzasida chuqur kesiklar hosil bo‘lishining oldini olish uchun yetarli darajada ehtiyotkorlik bilan bajarilishi kerak.

---

[1] *Xaridor tomonidan belgilangan hollarda go‘sht mahsulotlari metall zarrachalarini aniqlash tekshiruvidan o‘tkaziladi.*

[2] *Muzlatishda hosil bo‘ladigan qurish belgilari — bu qisman yoki to‘liq ravishda asl rangning o‘zgarishi va/yoki taktil xususiyatlarning o‘zgarishi (quruq, g‘ovak bo‘lib qolishi) bilan namoyon bo‘ladigan, sirtning qaytmas suvsizlanishi kuzatiladigan lokal (mahalliy) yoki keng tarqalgan sohalardir.*

STANDARTLAR INSTITUTI #NZO8J4IOUN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Notekis chetlar lahm go‘sht yuzasiga yaqin qilib olib tashlanishi kerak. Tabiiy choklar orqali ajratiladigan bo‘laklar bundan mustasno, barcha ko‘ndalang kesim yuzalari teri yuzasi bilan taxminan to‘g‘ri burchak hosil qilishi kerak. Qo‘shni bo‘lakdan olingan minimal miqdordagi lahm go‘sht, yog‘ yoki suyak bo‘lakka kiritilishi mumkin. Suyaksiz bo‘laklarda barcha suyaklar, tog‘aylar va yuzada ko‘rinib turgan limfa tugunlari olib tashlanishi kerak.

3. Xaridor tomonidan belgilanadigan talablar

Quyidagi kichik bo‘limlarda xaridor tomonidan belgilanishi mumkin bo‘lgan talablar hamda (BMTY) cho‘chqa go‘shti kodida foydalaniladigan kodlar keltirilgan (4-bo‘limga qarang).

3.1 Qo‘shimcha talablar

Xaridor tomonidan belgilanadigan va kodda hisobga olinmagan (masalan, agar 9-kod – “boshqalar” ishlatilsa) yoki mahsulot yoxud qadoqlash tavsifiga qo‘shimcha aniqlik kiritadigan qo‘shimcha talablar xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishilgan hamda tegishli tartibda hujjatlashtirilgan bo‘lishi kerak.

3.2 Hayvon turi

1-ma’lumotlar maydonidagi cho‘chqa go‘shti uchun kod 1.1-bo‘limda belgilanganidek 30 ga teng.

3.3 Mahsulot/bo‘lak

Ushbu hujjatda ko‘rsatilgan cho‘chqa go‘shti bo‘laklari faqat tavsiyaviy xarakterga ega. Ushbu hujjatning yangilanishlari rivojlanib borishi bilan, zaruratga qarab turli go‘sht bo‘laklari qo‘shilishi yoki olib tashlanishi mumkin. Ushbu bo‘laklarning aksariyati xalqaro miqyosda bir nechta savdo nomi ostida sotiladi. Uyg‘unlashtirilgan kodlashtirish tizimidan (qarang: www.unece.org/trade/agr/standard/meat/meat_e.html) foydalanishdan maqsad ushbu hujjatni qo‘llashni osonlashtirishdan iborat.

Mahsulotning to‘rt xonali identifikatsiya kodi 5-bo‘limda belgilangan

3.4 Sovitish

Go‘sht sovitilgan, muzlatilgan yoki chuqur muzlatilgan shaklda taqdim etilishi mumkin. Amaldagi muzlatish usuliga qarab, mahsulot vazni bo‘yicha yo‘l qo‘yiladigan og‘ishlar xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishib olinishi kerak. Butun yetkazib berish zanjiri davomida atrof-muhit harorati mahsulotning ichki harorati bir xilda quyidagicha bo‘lishini ta’minlashi kerak:

Sovitish/ Muzlatish kodi (ma’lu-motlar maydoni 4)	*Toifa*	*Tavsif*
0	Belgilanmagan	
1	Sovitilgan	Mahsulotning ichki harorati so‘yishdan keyingi sovitish jarayonidan so‘ng har qanday vaqtda ichki harorati –1,5 °C dan past bo‘lmagan va +7°C dan yuqori bo‘lmagan darajada saqlanadi

STANDARTLAR INSTITUTI #NZO8J4IOUN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

2	Muzlatilgan	Muzlatishdan keyin barcha vaqtlarda mahsulotning ichki harorati –12 °C dan yuqori bo‘lmagan darajada saqlanadi
3	Chuqur mu-zlatilgan	Muzlatishdan keyin barcha vaqtlarda mahsulotning ichki harorati –18 °C dan yuqori bo‘lmagan darajada saqlanadi
4–8	Kodlar ishlatil-maydi	
9	Boshqala	

3.5 Yetishtirish tarixi

3.5.1 Kuzatuvchanlik

Xaridor tomonidan belgilanishi mumkin bo‘lgan ishlab chiqarish tarixiga oid talablar amalda kuzatiluvchanlik tizimlarining mavjud bo‘lishini taqozo etadi. Kuzatiluvchanlik ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida cho‘chqalar, tanalar, qutilarni va bo‘laklarni identifikatsiya qilishning tekshiriladigan uslubini talab qiladi. Kuzatiluvchanlik tartib-taomili qo‘llanilganda, u 3.12-bandda ko‘rsatilgan muvofiqlikni baholash organi tomonidan tasdiqlanishi kerak.

3.5.2 Cho‘chqalarning toifasi

Cho‘chqa toifasi kodi (ma'lu-motlar maydoni 5)	*Toifa*	*Tavsif*
0	Belgilanmagan	
1	Bichilgan erkak cho‘chqa	Bichilgan erkak cho‘chqa. Bunga im-munokastratsiya qilingan erkak cho‘chqalar ham kirishi mumkin
2	Urug‘lantirilmagan urg‘ochi	Urug‘lantirilmagan urg‘ochi cho‘chqa.
3	Bichilgan erkak va/yoki bo-lalamagan urg‘ochi cho‘chqa	Cho‘chqa go‘shti
4	Sut emuvchi cho‘chqa bolasi	Vazni 15 kg dan kam bo‘lgan (issiq nimta vazni), boshi ajratilmagan yosh cho‘chqa
5	Yaxshi rivojlangan erkak cho‘chqa	Voyaga yetgan, bichilmagan erkak cho‘chqa.
6	Urg‘ochi cho‘chqa	Bolalash tajribasiga ega urg‘ochi cho‘chqa.
7	Yosh cho‘chqa	Vazni 35 kg dan kam bo‘lgan (issiq nimta vazni), boshi ajratilmagan yosh cho‘chqa
8	Erkak cho‘chqa	Voyaga yetmagan, bichilmagan erkak cho‘chqa
9	Boshqa	

3.5.3 Yetishtirish tizimi

Xaridor yetishtirish tizimini belgilashi mumkin. Har qanday holatda ham yetishtirish import qiluvchi mamlakatda amalda bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq bo‘lishi kerak. Agar bunday normativ hujjatlar mavjud bo‘lmasa, eksport qiluvchi mamlakatning normativ hujjatlaridan foydalaniladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #NZO8J4IOUN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Yetishtirish tizimi kodi (ma'lumot maydoni 6)	*Toifa*	*Tavsif*
0	Belgilanmagan	
1	Yopiq binoda	Yopiq joylarda saqlashga asoslangan yetishtirish usullari
2	Yopiq/Ochiq	Hayotining bir qismi davomida ochiq havoda saqlashga asoslangan yetishtirish usullari
3	Organik	Organik mahsulotlar yetishtirish bo‘yicha import qiluvchi mamlakat qonunchiligiga muvofiq keladigan yetishtirish usullari
4	To‘liq ochiq havoda	Butun hayoti davomida ochiq havoda saqlashga asoslangan yetishtirish usullari
5-8	Kodlar ishlatilmaydi	
9	Boshqa	Xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishilgan har qanday boshqa yetishtirish tizimi

3.5.4 Oziqlantirish tizimi

Xaridor oziqlantirish tizimini belgilashi mumkin. Har qanday holatda ham oziqlantirish import qiluvchi mamlakatda amalda bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq bo‘lishi kerak. Agar bunday normativ hujjatlar mavjud bo‘lmasa, boqish tizimi xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishib olinadi.

Oziqlantirish tizimi kodi (ma'lumot maydoni 7)	*Toifa*
00	Belgilanmagan
01	An’anaviy
02-09	Kodlar qo‘llanilmaydi
10	Go‘sht-suyak uni va baliq unidan xoli
11	Go‘sht-suyak uni, baliq uni hamda hayvonlardan olingan boshqa tarkibiy mahsulotlardan xoli
12	Go‘sht-suyak uni, baliq uni, hayvonlardan olingan tarkibiy mahsulotlar hamda o‘sish stimulyatorlaridan xoli
13	Go‘sht-suyak uni, baliq uni, hayvonlardan olingan tarkibiy mahsulotlar, o‘sish stimulyatorlari hamda GMOdan xoli
14	Go‘sht-suyak uni, baliq uni hamda o‘sish stimulyatorlaridan xoli
15	Go‘sht-suyak uni, baliq uni, o‘sish stimulyatorlari hamda GMOdan xoli
16	Go‘sht-suyak uni, baliq uni hamda GMOdan xoli
17-29	Kodlar qo‘llanilmaydi
30	Hayvonlardan olingan tarkibiy mahsulotlardan xoli
31	Hayvonlardan olingan tarkibiy mahsulotlar hamda o‘sish stimulyatorlaridan xoli
32	Hayvonlardan olingan tarkibiy mahsulotlar hamda GMOdan xoli
33	Hayvonlardan olingan tarkibiy mahsulotlar, o‘sish stimulyatorlari hamda GMOdan xoli
34-49	Kodlar qo‘llanilmaydi

STANDARTLAR INSTITUTI #NZO8J4IOUN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

50	O‘sish stimulyatorlaridan xoli
51	O‘sish stimulyatorlari hamda GMOdan xoli
52-59	Kodlar qo‘llanilmaydi
60	GMOdan xoli
61-98	Kodlar qo‘llanilmaydi
99	Boshqa

FM free — baliq unidan xoli

IAO free — hayvonlardan olingan tarkibiy mahsulotlardan xoli

GP free — o‘sish stimulyatorlaridan xoli

GMO free — genetik jihatdan modifikatsiyalangan organizmlardan olingan mahsulotlardan xoli

3.5.5 So‘yish tizimi

Xaridor so‘yish tizimini belgilashi mumkin. Har qanday holatda ham so‘yish import qiluvchi mamlakatda amalda qiladigan normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq bo‘lishi shart. Agar bunday normativ-huquqiy hujjatlar mavjud bo‘lmasa, so‘yish tizimi xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishib olinadi.

So‘yish tizimi kodi (ma’lumot maydoni 8)	*Toifa*	*Tavsif*
0	Belgilanmagan	
1	Belgilangan	Xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishil-ganidek belgilangan so‘yish tizimi
2-8	Kodlar qo‘llanilmaydi	
9	Boshqa	So‘yishning xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishilishi shart bo‘lgan har qanday boshqa ruxsat etilgan usuli

3.5.6 So‘yishdan keyingi ishlov berish tizimi

So‘yishdan keyingi ish-lov berish kodlari (ma'lumot maydoni 9)	*Toifa*	*Tavsif*
0	Belgilanmagan	
1	Belgilangan	Xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelish-ilgan holda belgilangan so‘yishdan keyingi ishlov berish tizimi
2-9	Kodlar ishlatilmaydi	

1-izoh. Orqa miya va boshqa yuqori xavfli materiallarni olib tashlash: Ayrim bozor talablari orqa miya, asab va limfa to‘qimalarini olib tashlash bo‘yicha talablarni belgilaydi. Orqa miyani olib tashlash talablarida go‘sht tanasi yoki bo‘lakning qaysi ishlov berish bosqichida orqa miyasi olib tashlanishi kerakligi aniq ko‘rsatiladi. Agar olib tashlash talab etilsa, u to‘liq hajmda olib tashlanishi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #NZO8J4IOUN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

2-izoh. Quyidagi ro‘yxatda xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishilishi mumkin bo‘lgan ba’zi umumiy so‘yishdan keyingi jarayonlar tavsiflangan. Ushbu talablar ot go‘shti uchun (BMTY) kodlash tizimiga kiritilmagan:

3.6 Yog‘ miqdorini cheklash va ayrim bo‘laklarda yog‘ qalinligini baholash

3.6.1 Yog‘ qalinligi

Xaridor go‘sht tanalari, yarimta go‘sht tanalari va bo‘laklarning maksimal yog‘ qalinligini belgilashi mumkin. Yo‘l qo‘yiladigan yog‘ cheklovlari quyidagicha:

Yog‘ qalinligi kodi (ma'lumot maydoni 10)	*Toifa*
0	Belgilanmagan
1	Shilingan, barcha qatlamlardan tozalangan, yuza membranasi olib tashlangan
2	Yog‘ qalinligi 0 dan 5 mm gacha
3	Yog‘ qalinligi 6 dan 12 mm gacha
4	Yog‘ qalinligi 12 mm dan yuqori
5-8	Kodlar qo‘llanilmaydi
9	Boshqa

Izoh. Tanalarda yog‘ qalinligini o‘lchash joylari (masalan, qovurg‘a sohalari) xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishib olinishi kerak. Lahm go‘sht % ini hisoblash bo‘yicha ma’lumotlar uchun 3.8-bo‘limga qarang.


3.6.2 Yog‘ qatlamini yo‘nish

Tashqi yog‘ qatlamini yo‘nish ostki mushak yuzasi konturi bo‘ylab silliq yo‘nish orqali amalga oshirilishi kerak. Talab etilganda, faqat yog‘ chetlarini qiyatib kesishning o‘zi tashqi yuzalarni to‘liq yo‘nish o‘rnini bosa olmaydi. Yog‘ qalinligi bo‘yicha talablar xaridor tomonidan belgilanganidek, yuza yog‘iga (teri osti va/yoki mahsulotga tashqi yog‘ qatlami) hamda mushaklararo yog‘ qatlamiga qo‘llanilishi mumkin. Yog‘ni yo‘nish darajasi tavsiflash uchun ikkita ta’rifdan foydalaniladi:

• Istalgan bir nuqtadagi maksimal yog‘ qalinligi: Bo‘lakning eng katta yog‘ chuqurligiga ega bo‘lgan maydonini ko‘z bilan aniqlash va o‘sha nuqtadagi yog‘ qalinligini o‘lchash orqali baholanadi.

• O‘rtacha yog‘ qalinligi: Faqat yuza yog‘i aniq ko‘rinib turgan maydonlarning yog‘ chuqurligini ko‘z bilan aniqlash va bir nechta o‘lchovlarni olish orqali baholanadi. O‘rtacha yog‘ chuqurligi ushbu maydonlardagi o‘rtacha arifmetik chuqurlikni hisoblash yo‘li bilan aniqlanadi.

STANDARTLAR INSTITUTI #NZO8J4IOUN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI



1-rasm

Yog‘ qalinligining haqiqiy o‘lchovlari bo‘laklarning chetlarida, o‘lchov natijasiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan har qanday tabiiy botiqlik yoki choklarni hisobga olgan holda va haqiqiy qalinlikni ko‘rsatadigan tarzda ustki yuza yog‘ini zondlash yoki kesish orqali amalga oshiriladi.

Mushakda tabiiy botiqlik mavjud bo‘lganda, faqat kengligi 19 mm (0,75 dyuym) dan ortiq bo‘lgan botiqlik qismi ustidagi yog‘ qatlami hisobga olinadi (“ko‘prikcha” usuli sifatida tanilgan; 1-rasmga qarang). Qo‘shni mushaklar o‘rtasida yog‘ choki (qatlami) mavjud bo‘lganda, faqat tegishli mushaklar darajasidan yuqorida joylashgan yog‘ qatlami o‘lchanadi (“tekislik” usuli sifatida tanilgan; 1-rasmga qarang).

Biroq, “Shilingan, batamom tozalangan, yuza membranasi olib tashlangan”[3] deb belgilangan yog‘ cheklovlari ko‘rsatilganda, mushakdagi tabiiy botiqlik ustidagi yog‘ni va tutash mushaklar orasidagi yog‘ni baholashda “ko‘prikcha” usulidan foydalanilishi kerak.

---

[3] *Shilingan/batamom tozalangan, yuza membranasi olib tashlangan — yuza membranasi („kumushsimon“ yoki „ko‘kimtir to‘qima“) olib tashlanishi (terisi shilinishi) talab etilganda, buning natijasida hosil bo‘lgan tayyor bo‘lak yuzasining kamida 90 foizi lahm go‘shtdan iborat bo‘lishi, qolgan mayda yog‘ parchalari („paxmoq yog‘lar“) chuqurligi esa 3 mm (0,125 dyuym) dan oshmasligi kerak.*

STANDARTLAR INSTITUTI #NZO8J4IOUN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

3.7 Cho‘chqa go‘shti sifati tizimi

3.7.1 Cho‘chqa go‘shti sifat tizimi kodi (11-ma’lumotlar maydoni — 1 dan 2 gacha)

Cho‘chqa go‘shti sifatini tasniflash tizimi kodi (ma’lumotlar maydoni 11)	*Toifa*	*Tavsif*
0	Belgilanmagan	
1	Rasmiy standartlar	Eksport qiluvchi mamlakatning rasmiy sifat tizimiga asoslangan sifat tasniflari
2	Tarmoq standartlari	Butun tarmoq miqyosidagi sifat tizimiga asoslangan sifat tasniflari
3-8	Lahm go‘sht miqdori	(3.7.2-bandga qarang)
9	Boshqa	Xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishilgan boshqa sifat tasniflari

Izoh. Har qanday tizim iste’mol qiluvchi mamlakatning rasmiy sifat talablariga javob berishi yoki ulardan yuqori bo‘lishi kerak.

3.7.2 Lahm go‘sht miqdori kodidan foydalanuvchi mamlakatlar uchun (11-ma’lumotlar maydoni — 3 dan 8 gacha)

Bo‘lakning lahm go‘sht miqdori pichoq yordamida ajratilgan ko‘ndalang-targ‘il qizil mushaklar umumiy vaznining bo‘lakning umumiy vazniga nisbatan % hisobidagi ulushi sifatida belgilanadi.

Bo‘lak/yarim bo‘lakdagi lahm go‘sht miqdori kodlari cho‘chqalar toifasiga (3.5.2-band) mos kelishi kerak.

Lahm go‘sht miqdorini baholash usullari so‘yish amalga oshirilgan mamlakatning vakolatli organi tomonidan belgilanadi.

Bo‘lak/yarim bo‘lakdagi lahm go‘sht miqdori kodi	*Lahm go‘sht toifasi (bo‘lak vazniga nisbatan % hisobida)*
3	60% yoki undan ortiq
4	55% yoki undan ortiq, lekin 60% dan kam
5	50% yoki undan ortiq, lekin 55% dan kam
6	45% yoki undan ortiq, lekin 50% dan kam
7	40% yoki undan ortiq, lekin 45% dan kam
8	40% dan kam

3.8 Go‘sht va yog‘ rangi, marmarlik darajasi va pH ko‘rsatkichi

Odatda, lahm go‘sht va yog‘ muayyan biologik turga qarab o‘ziga xos xarakterli rang va pH ko‘rsatkichini namoyon etadi. Rang, marmarlik va pH ko‘rsatkichiga doir har qanday maxsus talablar xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishib olinishi kerak hamda ular kodlashtirish tizimida nazarda tutilmagan.

Tizimga qo‘yiladigan maxsus talablar xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishiladi. Ushbu sifat tizimlari lahm mahsulotining ulushi, marmarlik darajasi, lahm go‘sht rangi va pH ko‘rsatkichini qamrab olishi mumkin, biroq bular bilan cheklanib qolmaydi. Ushbu turli xil sifat

STANDARTLAR INSTITUTI #NZO8J4IOUN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

standartlari turli mamlakatlar, kompaniyalar va/yoki tarmoqlar tomonidan ishlab chiqilgan texnik shartlarga asoslanadi (kodlashtirish uchun 3.7-bo‘limga qarang).

3.9 Bo‘laklar va bo‘laklarning vazn ko‘rsatkichi

Vazn ko‘rsatkichi kodi (ma’lumotlar maydoni 12)	*Toifa*	*Tavsif*
0	Belgilanmagan	
1	Belgilangan	Diapazon talab etiladi
2-9	Kodlar qo‘llanilmaydi	

Izoh. Ushbu vazn ko‘rsatkichlari porsiyalarni nazorat qilish uchun emas, balki sotilayotgan go‘sht bo‘laklarining o‘lchamlarini belgilash uchun mo‘ljallangan.

3.10 Qadoqlash, saqlash va tashish

3.10.1 Tavsif va talablar

Birlamchi qadoq mahsulotning bevosita o‘rab turadigan qadoq, u oziq-ovqat mahsulotlariga mo‘ljallangan xavfsiz materiallardan tayyorlangan bo‘lishi kerak. Ikkilamchi qadoq birlamchi qadog‘iga qadoqlangan mahsulotlarni o‘z ichiga oladi. Saqlash va tashish jarayonida go‘sht mahsulotlari quyidagi minimal talablarga muvofiq qadoqlanishi kerak:

Bo‘laklar, bo‘lingan yarim bo‘laklar va chorak bo‘laklar

- Sovitilgan, muzlatilgan yoki chuqur muzlatilgan shaklda — qadoqlangan yoki qadoqlanmagan holda.

Bo‘laklar — sovitilgan

- Yakka tartibda o‘ralgan (I.W.);
- Yaxlit qadoqlangan;
- Vakuumda qadoqlangan (VAC);
- Modifikatsiyalangan gaz muhitida qadoqlangan (MAP);
- Boshqa.

Bo‘laklar — muzlatilgan / chuqur muzlatilgan

- Yakka tartibda o‘ralgan (I.W.);
- Yaxlit qadoqlangan;
- Vakuumda qadoqlangan (VAC);
- Boshqa.

Jo‘natishdan oldingi saqlash sharoitlari va tashish uchun qo‘llaniladigan uskunalar go‘shtning jismoniy va, xususan, issiqlik holatiga (sovitilgan, modifikatsiyalangan gaz muhitida sovitilgan, muzlatilgan yoki chuqur muzlatilgan) mos kelishi hamda import qiluvchi mamlakat talablariga muvofiq bo‘lishi kerak. Tez buziladigan oziq-ovqat mahsulotlarini xalqaro tashish va bunday tashishlar uchun qo‘llaniladigan maxsus uskunalar to‘g‘risidagi BMTY Bitimi (ATP) qoidalariga alohida e’tibor qaratish kerak (http://www.unece.org/trans/main/wp11/atp.html).

3.10.2 Qadoqlash kodi

Qadoqlash kodi (ma’lumotlari maydoni 13)	*Toifa*
0	Belgilanmagan
1	Bo‘laklar, yarim bo‘laklar va chorak bo‘laklar — qadoqsiz
2	Bo‘laklar, yarim bo‘laklar va chorak bo‘laklar — qadoqlangan
3	Bo‘laklar — yakka tartibda o‘ralgan (I.W.)

STANDARTLAR INSTITUTI #NZO8J4IOUN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

4	Bo‘laklar — yaxlit qadoqlangan (plastik yoki mumlangan ichki qoplamali konteynerda)
5	Bo‘laklar — vakuumda qadoqlangan (VAC)
6	Bo‘laklar — modifikatsiyalangan gaz muhitida qadoqlangan (MAP)
7	Plastik yoki mumlangan ajratgichlar bilan qator qilib qadoqlangan
8	Kod qo‘llanilmaydi
9	Boshqa

3.11 Go‘shtning savdo birliklarida ko‘rsatiladigan yoki ularga biriktiriladigan tamg‘alash ma’lumotlari

Tamg‘aning barcha ma’lumotlari tekshiriladigan bo‘lishi kerak (shuningdek, 3.5.1-bandga qarang).

3.11.1 Majburiy ma’lumotlar

Import qiluvchi mamlakatlarning milliy talablariga zarar yetkazmagan holda, quyidagi jadvalda mahsulot yorliqlarida ko‘rsatilishi shart bo‘lgan ma’lumotlar keltirilgan:

- Yarim bo‘laklar va chorak bo‘laklar uchun**:** majburiy ma’lumotlar mahsulotning o‘ziga biriktirilishi (tamg‘alanishi va/yoki yorliq osilishi) kerak;

- Qadoqlangan go‘sht bo‘laklari uchun: majburiy ma’lumotlar yuk tashish konteynerida ko‘rsatilishi kerak.

Tamg‘alash ma’lumotlari	*Bo‘laklar, yarim bo‘laklar va chorak bo‘laklar*	*Qadoqlangan yoki joylangan go‘sht*
Veterinariya-sanitariya tamg‘asi	X	X
So‘yish raqami yoki to‘p raqami	X	X
Qadoqlangan sana		X
Mahsulot nomi		X
Yaroqlilik muddati (har bir mamlakat talablariga muvofiq)		X
Saqlash sharoitlari (3.4-bo‘limga qarang: Sovitish)		X
Qadoqlovchi, qayta ishlovchi yoki chakana sotuvchini tegishli tarzda belgilash (tanib olish ma’lumotlari)		X[4]
Miqdori		X_4
Netto vazni		X_4

3.11.2 Qo‘shimcha ma’lumotlar

Import qiluvchi mamlakat qonunchiligi talablariga muvofiq xaridorning xohishiga ko‘ra yoki qayta ishlovchining tanloviga binoan mahsulot tamg‘alarida qo‘shimcha ma’lumotlar ko‘rsatilishi mumkin. Agar bunday ma’lumotlar ko‘rsatilsa, mahsulotga doir ushbu da’vo va ko‘rsatkichlar tekshiriladigan bo‘lishi kerak (shuningdek, 3.5.1-bandga qarang).

- Mahsulotga doir bunday ma’lumotlarga quyidagilar misol bo‘lishi mumkin:
- Yetishtirilgan mamlakati;
- Boqilgan mamlakat;
- So‘yilgan mamlakati;

[4] *Ushbu ma’lumotlar mahsulotga ilova qilinadigan hujjatlarda ham taqdim etilishi mumkin.*

STANDARTLAR INSTITUTI #NZO8J4IOUN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

- Qayta ishlangan mamlakat;
- Qadoqlangan mamlakat;
- Kelib chiqqan mamlakati. Ushbu standartda “kelib chiqqan mamlakat“ atamasi hayvonning tug‘ilishi, boqilishi, so‘yilishi, qayta ishlanishi/bo‘laklanishi va qadoqlanishi bitta mamlakatda amalga oshirilganligini ko‘rsatish uchun qo‘llaniladi.
- So‘yish va so‘yishdan keyingi tizimlar
- Keyingi qayta ishlash bosqichlari
- Chorva mollari, yetishtirish va oziqlantirish tizimlarining tavsiflari
- So‘yilgan sana
- Qayta ishlangan/qadoqlangan sana
- Sifati/navdorligi bo‘yicha tasniflash ko‘rsatkichlari
- pH ko‘rsatkichi, lahm go‘sht va yog‘ rangi

3.12 Muvofiqlikni baholash talablariga oid qoidalar

Xaridor mahsulotning sifati/navdorligi bo‘yicha tasniflash ko‘rsatkichlarini, standartning xaridor tomonidan belgilangan variantlarini va/yoki hayvonlarning belgilanishini uchinchi tomon ishtirokida muvofiqlikni baholashdan o‘tkazishni talab qilishi mumkin. Alohida muvofiqlikni baholash turlari yoki ularning kombinatsiyalari quyidagicha tanlanishi mumkin:

Sifati/nav bo‘yicha tasniflash ko‘rsatkichlarining muvofiqligini baholash (sifat): uchinchi tomon mahsulotning so‘ralgan sifat darajasiga muvofiqligini tekshiradi va sertifikat-lashtiradi. Ekspertiza o‘tkazuvchi organning nomi uchinchi tomon sertifikatlashtirish organining nomi hamda qo‘llaniladigan sifat navi standarti 3.1-bandda ko‘rsatilganidek belgilanishi kerak.

Savdo standartiga muvofiqlikni baholash (savdo standarti): uchinchi tomon mahsulotning ushbu savdo standartida ko‘rsatilganidek, xaridor tomonidan belgilangan variantlarga muvofiqligini tekshiradi va sertifikatlashtiradi. Uchinchi tomon sertifikatlashtirish organining nomi 3.1-bandda ko‘rsatilganidek belgilanishi kerak. Qo‘shimcha variant sifatida xaridor uchinchi tomon sertifikatlashtirish organining nomidan keyin sertifikatlashtirilishi kerak bo‘lgan, xaridor tomonidan belgilangan maxsus variantlarni ko‘rsatishi mumkin.

Cho‘chqa yoki to‘pning muvofiqligini baholash (cho‘chqa/ go‘sht tanasi): uchinchi tomon mahsulotning belgilangan talablarga muvofiqligini sertifikatlashtiradi. Uchinchi tomon sertifikatlashtirish organining nomi va talablar 3.1-bandda ko‘rsatilganidek belgilanishi kerak.

Muvofiqlikni baholash kodi (ma’lumotlari maydoni 14)	*Toifa*
0	Belgilanmagan
1	Sifati/navdorligi bo‘yicha tasniflash ko‘rsatkichlarining muvofiqligini baholash
2	Savdo standartiga muvofiqlikni baholash
3	Cho‘chqa yoki to‘pning muvofiqligini baholash (cho‘chqa/to‘p ID)
4	Sifat va savdo standartiga muvofiqlikni baholash
5	Sifat hamda cho‘chqa/to‘p ID muvofiqligini baholash
6	Savdo standarti hamda cho‘chqa/to‘p ID muvofiqligini baholash
7	Sifat, savdo standarti hamda cho‘chqa/to‘p ID mu-vofiqligini baholash

STANDARTLAR INSTITUTI #NZO8J4IOUN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

8	Kod qo‘llanilmaydi
9	Boshqa

4 Cho‘chqa go‘shti uchun xaridor talablarining (BMTY kodi)

4.1 Kodning ta’rifi

Cho‘chqa go‘shtiga qo‘yiladigan xaridor talablari uchun (BMTY kodi) 14 ta maydon va 20 ta raqamdan iborat bo‘lib (2 ta raqam qo‘llanilmaydi) u 3 va 5-bo‘limda belgilangan amaliy kodlarning kombinatsiyasidan tashkil topadi.

II ilovada joriy etish uchun identifikatorga ega bo‘lgan GS1/UCC tizimining tavsifi keltirilgan.

Maydon raqami	*Maydon nomi*	*Bo‘lim*	*Kod diapazoni*
1	Hayvon turi	3.2	00 – 99
2	Mahsulot/bo‘lak	5	0000 – 9999
3	Qo‘llanilmaydigan maydon	–	00 – 99
4	Sovitish	3.4	0 – 9
5	Toifa	3.5.2	0 – 9
6	Yetishtirish tizimi	3.5.3	0 – 9
7	Oziqlantirish tizimi	3.5.4	00 – 99
8	So‘yish tizimi	3.5.5	0 – 9
9	So‘yishdan keyingi ishlov berish tizimi	3.5.6	0 – 9
10	Yog‘ qalinligi	3.6.1	0 – 9
11	Sifat	3.7	0 – 9
12	Vazn diapazoni	3.9	0 – 9
13	Qadoqlash	3.10.2	0 – 9
14	Muvofiqlikni baholash	3.12	0 – 9

4.2 Misol

Quyidagi misolda sovitilgan, vakuumda qadoqlangan, belgilangan vazn diapazoniga ega, yog‘ qalinligi 5 mm dan kamroq qilib yo‘nilgan, yopiq binoda yetishtirish tizimida bichilgan erkak cho‘chqadan olingan va an’anaviy oziqlantirish tizimi qo‘llanilgan, belgilangan talablar asosida so‘yilgan va qayta ishlangan hamda korporativ standart sifat tizimi qo‘llanilgan cho‘chqaning uzun kesilgan son bo‘lagi (1-uslub) tavsiflangan. Ushbu mahsulot quyidagi (BMTY kodi) ega: **30401300111011122150**

Maydon raqami	*Nomi*	*Talab*	*Kod qiymati*
1	Hayvon turi	Cho‘chqa	30
2	Mahsulot/bo‘lak	Uzun kesilgan son bo‘lagi	4013
3	Qo‘llanilmaydigan maydon	–	00
4	Sovitish	Sovitilgan	1
5	Toifa	Bichilgan erkak cho‘chqa	1
6	Yetishtirish tizimi	Yopiq binoda	1
7	Oziqlantirish tizimi	An’anaviy	01
8	So‘yish tizimi	Belgilangan	1

STANDARTLAR INSTITUTI #NZO8J4IOUN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

9	So‘yishdan keyingi ishlov berish tizimi	Belgilangan	1
10	Yog‘ qalinligi	Yog‘ qalinligi 0 dan 5 mm gacha	2
11	Sifat	Tarmoq standarti	2
12	Vazn diapazoni	Belgilangan	1
13	Qadoqlash	Vakuumda qadoqlangan	5
14	Muvofiqlikni baholash	Belgilanmagan	0

5. Tanalar va bo‘laklarning tavsiflari

5.1 Mahsulotlarning ko‘p tilli ko‘rsatkichi

[Mahsulotlarning ko‘p tilli ko‘rsatkichlari go‘sht bo‘laklarining tarjima qilingan versiyalari asosida shakllantiriladi.]

5.2 Cho‘chqa yarim bo‘lagining skelet chizmasi

[Rasm]

5.3. Cho‘chqa go‘shtini birlamchi bo‘laklarga ajratish standart blok-chizmasi

[Rasm]

5.4. Cho‘chqa go‘shti bo‘laklari

To‘liq go‘sht tanasi 4000

To‘liq bo‘lak tananing barcha skelet mushaklari va suyaklarini o‘z ichiga oladi, u buyraklar yoki boshqa ichki a’zolarsiz tozalangan hamda amalda ichki yog‘lardan xoli bo‘lishi kerak. Buyrak, chanoq, yurak hamda qorin pardasi yog‘i qolishi mumkin. Bo‘lakning tashqi yuzasida teshib kirgan shikastlanishlar va tirnalishlar bo‘lmasligi kerak hamda, agar boshqacha ko‘rsatilmagan bo‘lsa, bo‘lak terisi shilinmagan bo‘lishi kerak. Zararlangan/shikastlangan oyoqlar sakrash bo‘g‘imi yoki yuqori tizda olib tashlanishi kerak. Bo‘yin arteriyasining noto‘g‘ri kesilishi sababli qon bilan to‘plangan („qon qolgan“) kurak bo‘lagiga ega bo‘laklar qabul qilinmaydi. Diafragmaning parda qismi lahm go‘shtga yaqin joydan olib tashlanishi kerak, garchi lahm go‘sht qismi bo‘lakga mustahkam birikkan bo‘lsa, qolishi mumkin. Bosh, jag‘ bo‘laklari va oyoqlar, agar boshqacha ko‘rsatilmagan bo‘lsa, saqlab qolinadi. Dum, agar boshqacha ko‘rsatilmagan bo‘lsa, saqlab qolinadi.

Belgilanishi kerak bo‘lgan xususiyatlar:

· Bosh olib tashlangan;
· Bosh va jag‘ bo‘laklari olib tashlangan;
· Bosh olib tashlangan va jag‘ bo‘laklari saqlab qolingan;
· Old oyoq olib tashlangan;
· Orqa oyoq olib tashlangan;
· Dum olib tashlangan;
· Diafragma olib tashlangan;
· Diafragma ustuni olib tashlangan;
· Son bo‘lagiga tutash qorin yog‘i olib tashlangan;
· Buyrak, chanoq, yurak hamda qorin pardasi yog‘i olib tashlangan.

STANDARTLAR INSTITUTI #NZO8J4IOUN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Yarim go‘sht tanasi 4001

Yarim bo‘lak to‘liq bo‘lakdan (4000-mahsulot) tayyorlanadi. Go‘sht tanasi umurtqa pog‘onasi bo‘ylab uzunligiga bo‘linadi, bunda bel va kurak bo‘laklarining asosiy mushaklari shikastlanmasligi hamda orqa miya egati umurtqa pog‘onasining butun uzunligi bo‘ylab aniq ko‘rinib turishi uchun yetarlicha bir xil bo‘lgan yarim bo‘laklarga ajratilishi kerak. Jag‘ va orqa oyoq, agar boshqacha ko‘rsatilmagan bo‘lsa, saqlab qolinadi. Dum olib tashlanadi. Bosh va old oyoq, agar boshqacha ko‘rsatilmagan bo‘lsa, olib tashlanadi.

Belgilanishi kerak bo‘lgan xususiyatlar:

· Bosh saqlab qolingan;

· Jag‘ olib tashlangan;

· Old oyoq saqlab qolingan;

· Orqa oyoq olib tashlangan;

· Teri olib tashlangan.

Yarim go‘sht tanasi — blokli tayyor (3 bo‘lakga bo‘lingan) 4002

Yarim go‘sht tanasi— blokli tayyor bo‘lak yarim bo‘lak (4001-mahsulot) bilan bir xil texnik shartlardan iborat. Bo‘lak uning uzunligiga taxminan vertikal ravishda uchta bo‘lakga kesiladi. Kesilgan bo‘laklar 6 va 7-bel umurtqalari orasidagi umurtqa pog‘onasi bo‘ylab kesib olingan uzun kesilgan son bo‘lagidan (4013-mahsulot) iborat. Orqa oyoq (4176-mahsulot) kaft osti va kaft suyaklari orasidan olib tashlanadi. O‘rta bo‘lak (4069-mahsulot) belgilangan qovurg‘a bo‘ylab old chorakdan ajratiladi. Old chorak (4008-mahsulot) belgilangan qovurg‘a bo‘ylab olib tashlanadi. Old oyoqlar (4175-mahsulot) bilak-kaft bo‘g‘imidan olib tashlanadi. Jag‘ (4350-mahsulot) olib tashlanadi.

Yarim go‘sht tanasi — blokli tayyor (3 bo‘lakga bo‘lingan, maxsus yo‘nilgan) 4003

Yarim go‘sht tanasi — blokli tayyor (3 bo‘lakga bo‘lingan, maxsus yo‘nilgan) bo‘lak yarim go‘sht tanasi (4001-mahsulot) kabi bo‘lak texnik shartlaridan iborat. Bo‘lak uchta bo‘lakga kesiladi. Kesilgan bo‘laklar orqa oyog‘i saqlab qolingan qisqa kesilgan son bo‘lagidan (4016-mahsulot) iborat. Bo‘lakning qolgan tana bo‘lagi uzun bel bo‘lagi (4140-mahsulot) hamda kurak-piknik va qorin bo‘lagi (4335-mahsulot) sifatida kesiladi.

Uzun bel/kurak-piknik va qorin bo‘lagini ajratish nuqtasi bosh tomondan umurtqadan belgilangan masofada boshlanib, kurak suyagi hamda yelka suyagi bo‘g‘imi orqali, umurtqaning ustki chetiga yonma-yon ravishda bel bo‘lagining butun uzunligi bo‘ylab yonbosh go‘sht tanasining eng uzun mushagining uchigacha va ushbu mushakni o‘z ichiga olgan holda amalga oshiriladi.

Yarim go‘sht tanasi — blokli tayyor (4 bo‘lakga bo‘lingan, maxsus yo‘nilgan) 4004

Yarim go‘sht tanasi — blokli tayyor (4 bo‘lakga bo‘lingan, maxsus yo‘nilgan) bo‘lak yarim bo‘lak (4001-mahsulot) kabi bo‘lak texnik shartlaridan iborat. Bo‘lak to‘rtta bo‘lakga kesiladi. Kesilgan bo‘laklar orqa oyog‘i saqlab qolingan qisqa kesilgan son bo‘lagidan (4016-mahsulot) iborat. Bo‘lakning qolgan tana bo‘lagi uzun bel bo‘lagi (4140-mahsulot) sifatida kesiladi. Bel bo‘lagining ustida joylashgan kurak suyagi bo‘lagi tabiiy chok bo‘ylab olib tashlanadi hamda old chorak bo‘lagiga biriktiriladi. Qorin bo‘lagi, tashqi kurak bo‘lagi (4045-mahsulot) va

STANDARTLAR INSTITUTI #NZO8J4IOUN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

qorin — uzaytirilgan bo‘lagi (4333-mahsulot) belgilangan qovurg‘a bo‘ylab to‘g‘ri kesim bilan ajratiladi.

Old chorak 4021–4026

(1 qovurg‘ali 4021; 2 qovurg‘ali 4022; 3 qovurg‘ali 4023; 4 qovurg‘ali 4024; 5 qovurg‘ali 4025; 6 qovurg‘ali 4026)

Old chorak bo‘lingan yarim bo‘lakdan (4001-mahsulot) umurtqalar orqali belgilangan qovurg‘a raqami bo‘ylab, qovurg‘a konturiga mos ravishda qorinning pastki bo‘lagigacha to‘g‘ri kesish orqali olinadi. Oyoq, jag‘ hamda bo‘yin/ko‘krak umurtqalari va qovurg‘alar/qovurg‘alararo mushaklar, agar boshqacha ko‘rsatilmagan bo‘lsa, saqlab qolinadi.

Belgilanishi kerak bo‘lgan xususiyatlar:

· Old oyoqni olib tashlash;

· Jag‘ni (yanoqni) olib tashlash;

· Bo‘yin/ko‘krak umurtqalari olib tashlangan;

· Qovurg‘alar/qovurg‘alararo mushaklar olib tashlangan.

Orqa chorak 4009–4010

(9 qovurg‘ali 4009; 8 qovurg‘ali 4010)

Orqa chorak bo‘lingan yarim bo‘lakdan (4001-mahsulot) umurtqalar orqali belgilangan qovurg‘a raqami bo‘ylab, qovurg‘a konturiga mos ravishda qorinning pastki bo‘lagigacha to‘g‘ri kesish orqali olinadi. Muqobil texnik shartlar xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishib olinadi. Diafragma va oyoq olib tashlanadi.

Belgilanishi kerak bo‘lgan xususiyatlar:

· Diafragma olib tashlangan;

· Oyoq olib tashlangan.

Qovuriladigan cho‘chqa go‘shti, to‘liq 4011

To‘liq qovuriladigan cho‘chqa boshi bilan birga bo‘ladi hamda ichki yog‘ va diafragmaning parda bo‘lagini o‘z ichiga olishi mumkin. Zarur hollarda boshqa talablar ham qo‘llanilishi mumkin.

Belgilanishi kerak bo‘lgan xususiyatlar:

· Taxminiy vazni.

Qovuriladigan cho‘chqa go‘shti, bo‘lingan 4012

Bo‘lingan qovuriladigan cho‘chqa boshi saqlab qolingan qovuriladigan cho‘chqadan iborat bo‘lib, ichki yog‘ va diafragmaning parda bo‘lagini o‘z ichiga olishi mumkin. Zarur hollarda boshqa talablar ham qo‘llanilishi mumkin.

Belgilanishi kerak bo‘lgan xususiyatlar:

· Taxminiy vazni.

Uzun kesilgan son bo‘lagi 4013

(1-uslub)

Uzun kesilgan son bo‘lagi: 1-uslub bo‘lingan yarim bo‘lakdan (4001-mahsulot) 6 va 7-bel umurtqalari orasidagi umurtqa pog‘onasiga yonma-yon chiziqqa taxminan vertikal kesim

STANDARTLAR INSTITUTI #NZO8J4IOUN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

orqali va chanoq suyagidan hamda unga tegishli tog‘aydan bevosita oldinda joylashgan nuqtadan o‘tadigan tarzda ajratiladi. Orqa oyoq kaft osti bo‘g‘imidan olib tashlanadi.

Belgilanishi kerak bo‘lgan xususiyatlar:

· Oyoq saqlab qolingan.

Uzun kesilgan son bo‘lagi 4014

(2-uslub)

Uzun kesilgan son bo‘lagi: 2-uslub dum umurtqalari, yonbosh mushaklari, teri osti mushagi va ochiq qolgan limfa bezlari olib tashlanishi bilan 1-uslubdan farq qiladi. Yarim parda mushagi ustidagi teri va bo‘yin yog‘i silliq hamda yaxshi yumaloqlangan bo‘lishi kerak, bunda terining eng ichki egri joyi tizza bo‘g‘imidan chanoq suyagining orqa chetigacha bo‘lgan masofaning kamida yarmi miqdorida yo‘nib tekislanadi. Sonning to‘rt boshli mushagining ichki tomonini qoplagan teri olib tashlanadi, ushbu mushak va chanoq sohasi ustidagi yog‘ esa lahm go‘shtga yaqin joydan olib tashlanadi. Orqa oyoq kaft osti bo‘g‘imidan olib tashlanadi.

Belgilanishi kerak bo‘lgan xususiyatlar:

· Orqa oyoq saqlab qolingan.

Uzun kesilgan son bo‘lagi 4015

(3-uslub)

Uzun kesilgan son bo‘lagi: 3-uslub yonbosh mushaklari, umurtqalar, chanoq suyagi va ularning ustidagi lahm go‘sht va yog‘, to‘rt boshli mushak ustidagi lahm va yog‘, katta bel mushagi hamda yonbosh mushagi olib tashlanishi bilan 2-uslubdan farq qiladi. Son suyagining boshi ochiq bo‘lishi kerak. Orqa oyoq kaft osti bo‘g‘imidan olib tashlanadi. Son botiqligining lahm bo‘lagi olib tashlanadi hamda teri saqlab qolinadi.

Belgilanishi kerak bo‘lgan xususiyatlar:

· Teri olib tashlangan;

· Oyoq saqlab qolingan;

· Son botiqligining lahm bo‘lagi saqlab qolingan.

Qisqa kesilgan son bo‘lagi 4016

(1-uslub)

Qisqa kesilgan son bo‘lagi: 1-uslub bo‘lingan yarim bo‘lakdan (4001-mahsulot) to‘rt boshli mushakdan oldinda, boldir suyaklariga yonma-yon chiziqqa taxminan vertikal va chanoq suyagining oldingi chetidan bosh tomonga 25 mm dan kam bo‘lmagan hamda 88 mm dan oshmaydigan nuqtadan o‘tadigan to‘g‘ri kesim orqali ajratiladi. Orqa oyoq saqlab qolinadi. Muqobil texnik shartlar xaridor va sotuvchi o‘rtasida kelishib olinadi.

Qisqa kesilgan son bo‘lagi 4017

(2-uslub)

Qisqa kesilgan son bo‘lagi: 2-uslub orqa oyoq sakrash bo‘g‘imida yoki undan biroz oldinroqda olib tashlanishi bilan 1-uslubdan farq qiladi. Dum umurtqalari, yonbosh mushagi, tana terisi mushagi va ochiq qolgan limfa bezlari olib tashlanadi. Yarim parda mushagi ustidagi teri va bo‘yin yog‘i silliq hamda yaxshi yumaloqlangan bo‘lishi kerak, bunda terining eng ichki egri joyi tizza bo‘g‘imidan chanoq suyagining orqa chetigacha bo‘lgan masofaning kamida yarmi

STANDARTLAR INSTITUTI #NZO8J4IOUN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

miqdorida yo‘nib tekislanadi. Sonning to‘rt boshli mushagining ichki tomonini qoplagan teri olib tashlanadi, ushbu mushak va chanoq sohasi ustidagi yog‘ esa lahm go‘shtga yaqin joydan olib tashlanadi. Chanoq suyagi quymich suyagini buzmagan holda qisman olib tashlanadi.

Qisqa kesilgan son bo‘lagi 4018

(3-uslub)

Qisqa kesilgan son bo‘lagi: 3-uslub quymich suyagi, umurtqalar, chanoq suyagi hamda ularning ustidagi lahm go‘sht va yog‘ olib tashlanishi bilan 2-uslubdan farq qiladi. Oyoq sakrash bo‘g‘imida yoki undan biroz oldinroqda, sakrash va tizza bo‘g‘imlari orasidagi masofaning yarmi bo‘ylab kesish orqali yoki boshqa belgilangan joylarda olib tashlanadi.

Belgilanishi kerak bo‘lgan xususiyatlar:

· Teri olib tashlangan.

Suyakli cho‘chqa go‘shti tilimlari (XXXX)

Orqa boldir uning qiymatini oshirish uchun son bo‘lagining kichik bo‘laklarini qoldirgan holda son bo‘lagidan (4016-4018) kesib olinadi. Son bo‘lagi suyaklari va terisi bilan birga qoladi. Tilimlarga kesish sonning torroq tomonidan boshlanadi va taxminan 4-5 ta tilim beradi.

Ortiqcha yog‘ni olib tashlash tavsiya etiladi; birinchi tilim odatda chanoq suyagini o‘z ichiga olgani uchun suyakdan ajratiladi.

Uzun kesilgan son bo‘lagi (suyaksiz) 4200

Suyaksiz uzun kesilgan son bo‘lagi bo‘lingan yarim bo‘lakdan (4001-mahsulot) 6 va 7-bel umurtqalari orasidagi umurtqa pog‘onasiga yonma-yon chiziqqa taxminan vertikal kesim orqali va chanoq suyagidan hamda unga tegishli tog‘aydan bevosita oldinda joylashgan nuqtadan o‘tadigan tarzda ajratiladi. Barcha suyaklar va tog‘aylar olib tashlanishi kerak. Yonbosh bo‘lagi va unga tegishli yonbosh yog‘i olib tashlanadi. Son bo‘lagi chok bo‘ylab ajratilgan holda suyaksizlantirilishi yoki naychasimon suyaksizlantirilishi mumkin. Teri olib tashlanishi kerak.

Belgilanishi kerak bo‘lgan xususiyatlar:

· Teri saqlab qolingan;

· Naychasimon suyaksizlantirilgan;

· Chok bo‘ylab ajratib suyaksizlantirilgan

Tashqi son bo‘lagi * 4300

Tashqi son bo‘lagi sonning tashqi mushaklaridan iborat bo‘lishi kerak. Ichki boldir qolishi mumkin; yuzaki barmaq bukuvchi mushak va unga tegishli yog‘ olib tashlanishi kerak. Barcha ustki teri olib tashlanadi.

* Savdo tavsiflarida yo‘nilgan tashqi bo‘lak yoki kumushsimon parda bo‘lagi deb ko‘rsatilishi mumkin.

Tashqi sonning o‘zak bo‘lagi 4301

Tashqi sonning o‘zak bo‘lagi cho‘chqa sonining tashqi bo‘lagidan tayyorlanadi. U faqat yarim paysimon mushakdan iborat bo‘lishi kerak.

Ichki son bo‘lagi 4290

STANDARTLAR INSTITUTI #NZO8J4IOUN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Ichki son bo‘lagi sonning ichki bo‘lagidagi yarim parda mushagi hamda unga tutash mushaklardan iborat bo‘lib, u sonning tashqi hamda oldingi-yon bo‘laklaridan tabiiy chok bo‘ylab olib tashlanadi. Barcha suyaklar, tog‘aylar va qalin biriktiruvchi to‘qimalar olib tashlanishi kerak.

Oldingi-yon son bo‘lagi 4310

Oldingi-yon son bo‘lagi suyaksiz sonning pastki bo‘lagidan ushbu bo‘lak hamda ichki va tashqi son bo‘laklari orasidagi tabiiy choklar bo‘ylab ajratib tayyorlanadi. Ushbu bo‘lak sonning to‘rt boshli mushak guruhidan: sonning to‘g‘ri mushagi, Sonning ichki keng mushagi, sonning oraliq keng mushagi, sonning tashqi keng mushaklaridan iborat. Ustki qalpoqcha bo‘lagi ham saqlab qolinadi.

Belgilanishi kerak bo‘lgan xususiyatlar:

· Ustki qalpoqcha bo‘lagi olib tashlangan.

3 bo‘lakga bo‘lingan son bo‘lagi 4311

(Ichki son — 4290, tashqi son — 4300 va oldingi-yon/yong‘oqsimon bo‘lak — 4310)

3 bo‘lakga bo‘lingan son bo‘lagi qisqa kesilgan son bo‘lagidan tayyorlanadi. U tabiiy choklar bo‘ylab ajratib olingan quyidagi biramchi bo‘laklardan iborat: tabiiy choklar bo‘ylab ajratilgan ichki son (4290-mahsulot), tashqi son (4300-mahsulot) hamda oldingi-yon/yong‘oqsimon bo‘lak (4310-mahsulot).

4 bo‘lakga bo‘lingan son bo‘lagi 4312

(Ichki son — 4290, tashqi son — 4300, ichki boldir/tovon va oldingi-yon/yong‘oqsimon bo‘lak ; — 4310)

4 bo‘lakga bo‘lingan son bo‘lagi qisqa kesilgan son bo‘lagidan tayyorlanadi va tabiiy choklar bo‘ylab ajratib olingan quyidagi biramchi bo‘laklardan iborat: ichki son (4290-mahsulot), tashqi son (4300-mahsulot), ichki boldir (tovon) hamda oldingi-yon/yong‘oqsimon bo‘lak (4310-mahsulot).

5 bo‘lakga bo‘lingan son bo‘lagi 4313

(Ichki son — 4290, tashqi sonning o‘zak bo‘lagi — 4301, tashqi sonning yassi bo‘lagi, ichki boldir/tovon va oldingi-yon/yong‘oqsimon bo‘lak — 4310)

5 bo‘lakga bo‘lingan son bo‘lagi qisqa kesilgan son bo‘lagidan tayyorlanadi va tabiiy choklar bo‘ylab ajratib olingan quyidagi birlamchi bo‘laklardan iborat: ichki son (4290-mahsulot), tashqi sonning o‘zak bo‘lagi (4301-mahsulot), tashqi sonning yassi bo‘lagi, ichki boldir hamda oldingi-yon/yong‘oqsimon bo‘lak (4310-mahsulot).

6 bo‘lakga bo‘lingan son bo‘lagi 4314

(Ichki son — 4290, tashqi sonning o‘zak bo‘lagi — 4301, tashqi sonning yassi bo‘lagi, ichki boldir/tovon, dumg‘aza/quymich (bel-son) bo‘lagi — 4130 va oldingi-yon/yong‘oqsimon bo‘lak — 4310)

6 bo‘lakga bo‘lingan son bo‘lagi uzun kesilgan son bo‘lagidan tayyorlanadi va tabiiy choklar bo‘ylab ajratib olingan quyidagi birlamchi bo‘laklardan iborat: ichki son

STANDARTLAR INSTITUTI #NZO8J4IOUN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

(4290-mahsulot), tashqi sonning o‘zak bo‘lagi (4301-mahsulot), tashqi sonning yassi bo‘lagi, ichki boldir, dumg‘aza/quymich bo‘lagi (4130-mahsulot) hamda oldingi-yon/yong‘oqsimon bo‘lak (4310-mahsulot).

*Sonning bo‘g‘im bo‘lagi * 4172*

Sonning bo‘g‘im bo‘lagi son bo‘lagidan (4013-mahsulot) orqa oyoqni kaft osti bo‘g‘imidan hamda sonni tizza bo‘g‘imidan olib tashlash orqali tayyorlanadi. Terisi saqlab qolinadi.

Belgilanishi kerak bo‘lgan xususiyatlar:

· Teri olib tashlangan;

· Suyak uchi tozalangan;

* Savdo tavsiflarida bo‘shliqli suyak (Ossobuco) deb ko‘rsatish mumkin.

Orqa oyoq 4176

Orqa oyoq son bo‘lagidan kaft osti bo‘g‘imi bo‘ylab orqa oyoqni sondan ajratish orqali olib tashlanadi. Terisi saqlab qolinadi.

Belgilanishi kerak bo‘lgan xususiyatlar:

· Teri olib tashlangan.

Bo‘g‘im bo‘lak 4069–4072

(13 qovurg‘ali 4069, 12 qovurg‘ali 4070, 11 qovurg‘ali 4071, 10 qovurg‘ali 4072)

O‘rta bo‘lak bo‘lingan yarim bo‘lakdan (4001-mahsulot) belgilangan kesish chiziqlari bo‘ylab son bo‘lagini (4013-mahsulot) va old chorakni (4021-mahsulot) olib tashlash orqali olinadi. Diafragma va lahm bo‘lagi olib tashlanadi.

Belgilanishi kerak bo‘lgan xususiyatlar:

· Teri olib tashlangan;

· Diafragma saqlab qolingan;

· Kurak suyagi olib tashlangan;

· Lahm bo‘lagi saqlab qolingan.

Qovurg‘ali cho‘chqa go‘shti / Suyak uchi tozalandan cho‘chqa qovurg‘asi

Qovurg‘a bo‘lagi o‘rta bo‘lakdan (4069 – 4072-mahsulot) belgilangan qovurg‘a konturi bo‘ylab to‘g‘ri kesish hamda ko‘krak umurtqalari orqali umurtqa pog‘onasini ajratgan holda to‘g‘ri burchak ostida kesish orqali tayyorlanadi. Qorin bo‘lagi belning o‘zak mushagining pastki chetidan belgilangan masofada olib tashlanadi hamda bosh uchida o‘lchangan umurtqa pog‘onasiga yonma-yon ravishda kesiladi.

Belgilanishi kerak bo‘lgan xususiyatlar:

· Qovurg‘alar soni;

· Qovurg‘aning uzunligi / Tozalanadigan suyak uchining uzunligi;

· Yog‘ qalinligi;

· Terisi olib tashlangan / Terisi saqlab qolingan;

· Umurtqa suyagi saqlab qolingan / Olib tashlangan.

Qorin bo‘lagi 4079–4082

(13 qovurg‘ali 4079, 12 qovurg‘ali 4080, 11 qovurg‘ali 4081, 10 qovurg‘ali 4082)

STANDARTLAR INSTITUTI #NZO8J4IOUN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Qorin bo‘lagi (suyakli) o‘rta bo‘lakdan (4069-mahsulot) uzun bel bo‘lagini (4140-mahsulot) olib tashlash orqali tayyorlanadi. Terisi saqlab qolinadi. Qorin pardasi (ichki) yog‘i miqdori olib tashlanadi. Qorin bo‘lagining oldingi (kurak) va orqa (son) uchlari yetarlicha to‘g‘ri hamda yonma-yon bo‘lishi kerak. Qorin bo‘lagining hech bir tomoni unga qarama-qarshi tomondan 5 sm dan ortiq uzun bo‘lmasligi kerak. Yonbosh mushagining kengligi son uchidagi qorin kengligining kamida 25 % ini tashkil etishi kerak.

Qorinning pastki tomonidagi va yonbosh bo‘lagiga tutashgan yog‘ lahm go‘shtdan 2 sm gacha bo‘lgan masofada yo‘nib tekislanishi kerak. Qorin bo‘lagi kattalashgan, yumshoq, g‘ovak, to‘q rangli yoki pigmentli sut bezi to‘qimalaridan xoli bo‘lishi kerak.

Belgilanishi kerak bo‘lgan xususiyatlar:

· Talab qilinadigan qovurg‘alar soni;

· Teri olib tashlangan;

· Diafragma saqlab qolingan;

· Qorin kengligi.

Uzun bel bo‘lagi 4140–4147

(17 qovurg‘ali 4140, 16 qovurg‘ali 4141, 15 qovurg‘ali 4142, 14 qovurg‘ali 4143, 13 qovurg‘ali 4144, 12 qovurg‘ali 4145, 11 qovurg‘ali 4146, 10 qovurg‘ali 4147)

(1-uslub)

Uzun bel bo‘lagi qisqa kesilgan son bo‘lagi (4016-mahsulot) hamda kurak-piknik va qorin bo‘lagi (4335-mahsulot) olib tashlangandan so‘ng yarim bo‘lakning qolgan orqa bo‘lagidan iborat. Bel yog‘i (lahm bo‘lagini qoplab turgan ichki yuzadagi) amalda to‘liq tozalangan holatgacha yo‘niladi. Lahm bo‘lagi saqlab qolinadi.

(2-uslub)

Kurak suyagi, unga tegishli tog‘aylar hamda ustki mushaklar (to‘liq) va yog‘ olib tashlanishi kerak.

(3-uslub)

Kurak bo‘lagi ko‘pi bilan sakkizta qovurg‘a qoladigan qilib olib tashlanadi va orqaning eng uzun mushagi tikanakli mushakdan kamida ikki baravar katta bo‘lishi kerak.

Belgilanishi kerak bo‘lgan xususiyatlar:

· Teri olib tashlangan;

· Yog‘ni yo‘nish darajasi.

Uzun bel bo‘lagi (kurak suyagi olib tashlangan) 4108–4111

(13 qovurg‘ali 4108, 12 qovurg‘ali 4109, 11 qovurg‘ali 4110, 10 qovurg‘ali 4111)

(1-uslub)

Uzun bel bo‘lagi (kurak suyagi olib tashlangan) uzun bel bo‘lagidan (4140-mahsulot) tayyorlanadi. Terisi olib tashlanadi. Bel bo‘lagi umurtqa suyagini olib tashlash orqali keyingi qayta ishlov berishdan o‘tkaziladi. O‘simta suyaklar hamda qovurg‘alar saqlab qolinishi kerak.

(2-uslub)

Kurak bo‘lagi ko‘pi bilan sakkizta qovurg‘a qoladigan qilib olib tashlanadi va orqaning eng uzun mushagi tikanakli mushakdan kamida ikki baravar katta bo‘lishi kerak.

Uzun bel bo‘lagi (4 bo‘lakga bo‘lingan) 4113

STANDARTLAR INSTITUTI #NZO8J4IOUN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Uzun bel bo‘lagi (4 bo‘lakga bo‘lingan) terisi olib tashlangan uzun bel bo‘lagidan (4108-mahsulot) tayyorlanadi. Bel bo‘lagi to‘rtta alohida bo‘lakga bo‘linadi: belgilangan qovurg‘a bo‘ylab olib tashlangan belning markaziy kesimi (4101-mahsulot), lahm bo‘lagi (4280-mahsulot), bel-dumg‘aza/quymich bo‘lagi (4130-mahsulot) hamda belgilangan qovurg‘a bo‘ylab olib tashlangan kurakning ichki bo‘lagi (4046-mahsulot).

Belgilanishi kerak bo‘lgan xususiyatlar:

· Bel hamda kurak bo‘laklarini olib tashlash nuqtalari uchun qovurg‘ani kesish chizig‘i.

Belning markaziy kesim bo‘lagi 4098–4101

(13 qovurg‘ali 4098, 12 qovurg‘ali 4099, 11 qovurg‘ali 4100, 10 qovurg‘ali 4101)

Belning markaziy kesim bo‘lagi o‘rta bo‘lakdan (4069-mahsulot) o‘zak mushagining pastki chetidan belgilangan masofadagi kesish orqali qorin bo‘lagini olib tashlash yo‘li bilan tayyorlanadi va belning o‘zak mushagining pastki chetidan belgilangan masofadagi kesish hamda (bosh uchidan o‘lchangan) umurtqa pog‘onasiga yonma-yon ravishda kesish orqali qorin bo‘lagini olib tashlash yo‘li bilan tayyorlanadi. Boshqacha ko‘rsatilmadi bo‘lsa, teri, kurak suyagi va unga tegishli tog‘aylar olib tashlanishi kerak.

Belgilanishi kerak bo‘lgan xususiyatlar:

· Ventral (pastki) kesish chizig‘i (dum uzunligi);

· Diafragma saqlab qolingan;

· Lahm bo‘lagi saqlab qolingan;

· Umurtqa suyagi olib tashlangan.

Qisman suyaksizlantirilgan belning markaziy kesim bo‘lagi 4102–4105

(13 qovurg‘ali 4102, 12 qovurg‘ali 4103, 11 qovurg‘ali 4104, 10 qovurg‘ali 4105)

Qisman suyaksizlantirilgan belning markaziy kesim bo‘lagi belning markaziy kesimidan umurtqa suyagini olib tashlash orqali tayyorlanadi; o‘simta suyaklar va qovurg‘alar saqlab qolinadi.

Bel-dumg‘aza bo‘lagi 4130

Bel-dumg‘aza bo‘lagi uzun kesilgan son bo‘lagidan (4013-mahsulot) tayyorlanadi. Ushbu bo‘lak chanoq kosasidan belgilangan masofada son bo‘ylab ko‘ndalang kesish orqali olib tashlanadi. Agar boshqacha ko‘rsatilmagan bo‘lsa, lahm bo‘lagining bir bo‘lagi saqlab qolinishi mumkin.

Belgilanishi kerak bo‘lgan xususiyatlar:

· Teri olib tashlangan;

· Uzun bel bo‘lagidan (4140-mahsulot) olib tashlash nuqtasi.

Bel qovurg‘achalari 4159

Bel qovurg‘achalari lahm bo‘lagi va belning o‘zak mushagi olib tashlangandan so‘ng har qanday suyakli cho‘chqa bel bo‘lagining bel umurtqalari ko‘ndalang o‘simtalari hamda ularga tutash lahm go‘shtdan olinadi. Bel qovurg‘achalari kamida to‘rtta ko‘ndalang o‘simtani (kuraksimon suyaklarni) o‘z ichiga olishi, tutash lahm go‘sht bilan birga butun saqlanishi hamda ko‘pi bilan ikkita qovurg‘a suyagidan iborat bo‘lishi kerak. Ushbu mahsulot sirtqi yog‘dan amalda to‘liq yo‘nib tozalanadi.

STANDARTLAR INSTITUTI #NZO8J4IOUN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

*Qorin qovurg‘alari * 4160*

Qorin qovurg‘alari suyakli qorin bo‘lagidan qovurg‘alar, qovurg‘a tog‘aylari va qovurg‘alararo mushaklarni olib tashlash orqali tayyorlanadi hamda kamida sakkizta qovurg‘adan iborat bo‘lishi kerak.

Belgilanishi kerak bo‘lgan xususiyatlar:

· Talab qilinadigan qovurg‘alar soni;

· Diafragma saqlab qolingan;

· Qorin qovurg‘alarining kengligi;

· Ko‘krak suyagi olib tashlangan;

* Savdo tavsiflarida qorin qovurg‘alari (Spare ribs) deb ko‘rsatilishi mumkin.

*Bel qovurg‘alar * 4161*

Bel qovurg‘alar suyakli bel bo‘lagidan barcha suyaklar va tog‘aylarni olib tashlash orqali tayyorlanadi hamda kamida sakkizta qovurg‘a va unga tegishli qovurg‘alararo go‘shtdan iborat bo‘lishi kerak. Qovurg‘a bo‘lagi shikastlanmagan bo‘lishi kerak, qovurg‘a uchlari orasida umurtqalarning mayda bo‘laklari qolishi mumkinligini bundan istasno qilganda, ko‘krak umurtqalarining tanasi olib tashlanishi kerak.

Belgilanishi kerak bo‘lgan xususiyatlar:

· Talab qilinadigan qovurg‘alar soni;

· Diafragma saqlab qolingan;

· Orqa qovurg‘alarning kengligi;

· Qovurg‘alarning va qovurg‘alararo mushaklarning ichki yuzasidan qorin pardasi olib tashlangan.

* Savdo tavsiflarida bel qovurg‘alari (Loin ribs) deb ko‘rsatilishi mumkin.

To‘liq qovurg‘a plastinasi 4162

To‘liq qovurg‘a plastinasi o‘rta bo‘lakdan butun qovurg‘a plastinasini bir bo‘lak holida va unga birikkan qovurg‘alararo mushaklarni to‘liq olib tashlash orqali tayyorlanadi. Diafragma olib tashlanadi.

Belgilanishi kerak bo‘lgan xususiyatlar:

· Talab qilinadigan qovurg‘alar soni;

· Diafragma saqlab qolingan;

· Qovurg‘a tog‘ayi olib tashlangan.

Sent-Luis uslubidagi qovurg‘alar 4163

Sent-Luis uslubidagi qovurg‘alar qorin qovurg‘alaridan ko‘krak suyagi hamda qovurg‘a tog‘aylarining pastki bo‘lagini olib tashlash orqali tayyorlanadi. Kamida sakkizta qovurg‘a saqlab qolinadi.

Qisqa qovurg‘alar 4164

STANDARTLAR INSTITUTI #NZO8J4IOUN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Qisqa qovurg‘alar qorin bo‘lagining orqa tomonidan qorinning butun uzunligi bo‘ylab to‘g‘ri kesish orqali olib tashlanadi. Qovurg‘alarning kengligi taxminan 120 mm ni tashkil etadi.

O‘rta bo‘lagi 4319–4322

(13 qovurg‘ali 4319, 12 qovurg‘ali 4320, 11 qovurg‘ali 4321, 10 qovurg‘ali 4322)

O‘rta bo‘lak yarim bo‘lakdan (4001-mahsulot) belgilangan bel umurtqalarida son bo‘lagini (4013-mahsulot) hamda belgilangan qovurg‘a yoki ko‘krak umurtqalarida old chorakni (4021-mahsulot) olib tashlash orqali olinadi. Diafragma va lahm bo‘lagi olib tashlanadi. Barcha suyaklar va tog‘aylar olib tashlanadi.

Belgilanishi kerak bo‘lgan xususiyatlar:

· Teri olib tashlangan;

· Diafragma saqlab qolingan;

· Qovurg‘a suyaklari qatlami/ip usulida suyaksizlantirilgan.

Bel bo‘lagi 4340–4343

(13 qovurg‘ali 4340, 12 qovurg‘ali 4341, 11 qovurg‘ali 4342, 10 qovurg‘ali 4343)

Bel bo‘lagi suyaksiz o‘rta bo‘lakdan (4319-mahsulot) suyaksiz qorin bo‘lagini (4329-mahsulot) o‘zak mushagining pastki chetidan belgilangan masofada va (bosh uchidan o‘lchangan) umurtqa pog‘onasiga yonma-yon ravishda kesish orqali olib tashlash yo‘li bilan tayyorlanadi.

Belgilanishi kerak bo‘lgan xususiyatlar:

· Teri olib tashlangan;

· Pastki kesish chizig‘i (dum uzunligi);

Belning o‘zak mushak bo‘lagi 4361

Belning o‘zak mushak bo‘lagi bel bo‘lagidan (4340-mahsulot) tayyorlanadi va tabiiy chok bo‘ylab ajratib olingan o‘zak mushak bo‘lagidan iborat bo‘ladi. Qovurg‘alararo va tutash mushak bo‘laklari olib tashlanadi.

Belgilanishi kerak bo‘lgan xususiyatlar:

· Barcha yog‘lardan to‘liq tozalangan;

· Kumushsimon parda olib tashlangan;

· Orqaning ko‘p bo‘lakli mushagi saqlab qolingan.

Qisqa belning o‘zak (markaziy) mushak bo‘lagi 4360

Qisqa belning o‘zak mushak bo‘lagi bel bo‘lagidan (4340-mahsulot) tayyorlanadi va o‘ninchi ko‘krak umurtqasidan bel-dumg‘aza umurtqalarining tutashgan joyigacha bo‘lgan masofada joylashgan hamda tabiiy chok bo‘ylab ehtiyotkorlik bilan olib tashlangan o‘zak mushak bo‘lagidan iborat bo‘ladi. Qovurg‘alararo va tutash mushak bo‘laklari olib tashlanadi.

Belgilanishi kerak bo‘lgan xususiyatlar:

· Barcha yog‘lardan to‘liq tozalangan;

· Kumushsimon parda olib tashlangan;

· Orqaning ko‘p bo‘lakli mushagi saqlab qolingan.

Bel-dumg‘aza / Quymich bo‘lagi (suyaksiz) 4305

STANDARTLAR INSTITUTI #NZO8J4IOUN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Suyaksiz bel-dumg‘aza bo‘lagi suyakli bel-dumg‘aza bo‘lagidan (4130-mahsulot) barcha suyak, tog‘ay, sirtqi yog‘ va qolgan lahm bo‘lagi bo‘lagini olib tashlash orqali tayyorlanadi.

Lahm bo‘lagi 4280

Lahm bo‘lagi bel umurtqalarining pastki yuzasi hamda yonbosh suyagining yon yuzasi bo‘ylab joylashgan katta bel mushagi va yonbosh mushagidan iborat. Yon tomondagi ingichka mushak bo‘lagi olib tashlanadi. Lahm bo‘lagi amalda sirtqi yog‘dan xoli bo‘lishi kerak.

Belgilanishi kerak bo‘lgan xususiyatlar:

· Yon tomondagi ingichka mushak bo‘lagi saqlab qolingan;

· Bosh mushak bo‘lagi olib tashlangan;

Qorin bo‘lagi (suyaksiz) 4329–4332

(13 qovurg‘ali 4329, 12 qovurg‘ali 4330, 11 qovurg‘ali 4331, 10 qovurg‘ali 4332)

Suyaksiz qorin bo‘lagi suyakli qorin bo‘lagidan (4329-mahsulot) qovurg‘alarni olib tashlash orqali tayyorlanadi.

1-uslub

Qovurg‘alar qorin bo‘lagidan qovurg‘a tog‘aylari, diafragma va barmoqsimon go‘shtni shikastlamagan holda hamda qorin bo‘lagiga jipslashgan holda qoldirib, alohida-alohida olib tashlanadi.

2-uslub

Qovurg‘alar qorin bo‘lagidan qovurg‘a tog‘aylari, diafragma va barmoqsimon go‘sht bilan birga butunligicha olib tashlanadi. Qorin bo‘lagida yuzi 50 sm^2 yoki undan ortiq bo‘lgan teshiklar hamda “qor to‘plamlari” (ochiq qolgan yog‘ zonalari) bo‘lmasligi kerak.

3-uslub

Sut bezlari so‘rg‘ichlari chizig‘i to‘g‘ri kesim bilan olib tashlanishini istasno qilganda, 2-uslub bilan bir xil.

Belgilanishi kerak bo‘lgan xususiyatlar:

· Talab qilinadigan qovurg‘alar soni;

· Teri olib tashlangan;

· Diafragma saqlab qolingan;

· Qorin kengligi.

Qorin bo‘lagi (yonbosh saqlangan) 4333

Qorin bo‘lagi (yonbosh saqlangan) kurak-piknik va qorin bo‘lagidan (4335-mahsulot) belgilangan qovurg‘a bo‘ylab kurak-piknik (4046-mahsulot) olib tashlangandan so‘ng qolgan biramchi qismdir.

Belgilanishi kerak bo‘lgan xususiyatlar:

· Teri olib tashlangan;

· Qorin cheti olib tashlangan;

· Yonbosh bo‘lagi olib tashlangan;

· Qorin qovurg‘alari olib tashlangan (4160-mahsulot).

Kurak-piknik va qorin bo‘lagi 4335

STANDARTLAR INSTITUTI #NZO8J4IOUN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Kurak-piknik va qorin bo‘lagi yarim bo‘lakdan tayyorlanadi. Kurak-piknik hamda qorin bo‘lagini ajratish nuqtasi bosh uchidan boshlanib, umurtqa pog‘onasidan belgilangan masofada kurak suyagi va yelkadosh suyagi bo‘g‘imi orqali kesib o‘tadigan hamda belning butun uzunligi bo‘ylab umurtqa chetiga yonma-yom ravishda yonboshning uzaytirilgan mushaklari uchigacha va ularni o‘z ichiga olgan holda amala oshiriladi.

Orqa yog‘i 7685

Orqa yog‘i bel bo‘lagi olib tashlangandan so‘ng orqaning yog‘li bo‘lagidan tayyorlanadi. Orqa yog‘i nisbatan qalin bo‘lishi va qalinligi butun uzunligi bo‘ylab nisbatan bir xil bo‘lishi kerak. Barcha chetlari yetarlicha to‘g‘ri burchakli holatda tekislangan bo‘lishi kerak.

Kurak bo‘lagi — to‘g‘ri burchakli kesim 4029–4032

(1 qovurg‘ali 4029, 2 qovurg‘ali 4030, 3 qovurg‘ali 4031, 4 qovurg‘ali 4032)

To‘g‘ri burchakli kesilgan kurak bo‘lagi yarim bo‘lakdan (4001-mahsulot) belgilangan qovurg‘ada yarim bo‘lak uzunligiga taxminan vertikal to‘g‘ri kesim orqali ajratiladi. Bosh, jag‘ va ko‘krak qavati bel tarafga taxminan yonma-yon to‘g‘ri kesim bilan olib tashlanadi, bu kesim quloq botiqligining eng ichki egri joyidan oldinda, lekin 25 mm dan ortiq bo‘lmagan masofada joylashadi. Oyoq va ko‘krak qavati olib tashlanadi.

Belgilanishi kerak bo‘lgan xususiyatlar:

· Qovurg‘alar soni;
· Teri olib tashlangan;
· Oyoq saqlab qolingan;
· Bo‘yin suyaklari, qovurg‘alar, ko‘krak suyaklari va tegishli tog‘aylar olib tashlangan.

Tashqi kurak bo‘lagi 4044

Tashqi kurak bo‘lagi to‘g‘ri burchakli kesilgan kurak bo‘lagidan (4029-mahsulot) tayyorlanadi va tegishli mushaklar bilan birga kurak, yelkadosh va old boldir suyaklaridan iborat bo‘ladi. Tashqi kurak bo‘lagi to‘g‘ri burchakli kesilgan kurak bo‘lagidan oldingi oyoq ostidan boshlanadigan, yuzaki ko‘krak mushagi, ventral tishli mushak va orqaning eng keng mushagi orasidagi tabiiy chok, ventral tishli mushak va kurakosti mushagi orasidagi tabiiy chok hamda ventral tishli mushak va kurak suyagining osti tomoni orasidagi tabiiy chok bo‘ylab kurak tog‘ayidan bevosita orqa nuqtagacha o‘tadigan kesim orqali ajratiladi. Barcha tomonlar yirik mushaklar va kurak suyagining tabiiy egriligiga mos ravishda yo‘nib tekislanishi kerak. Orqa taraf yelkaning uch boshli mushagini ochiq qoldirmasligi kerak. Terisi va oyog‘i saqlab qolinadi.

Belgilanishi kerak bo‘lgan xususiyatlar:

· Oyoq saqlab qolingan;
· Ko‘krak qavati saqlab qolingan;
· Teri olib tashlangan;
· Qovurg‘alar olib tashlangan;

Tashqi kurak bo‘lagi (3 bo‘lakga bo‘lingan) 4045

Tashqi kurak bo‘lagi (3 bo‘lakga bo‘lingan) bo‘yin umurtqasi va unga tegishli bo‘yin hamda old chorak go‘shti olib tashlangan, yarim bo‘lakning blokli tayyorlangan (4 bo‘lakga bo‘lingan) bo‘lagidan (4004-mahsulot) ajratib olingan old chorakdan (4021-mahsulot) tayyorlanadi. Kurak qovurg‘alari (4164-mahsulot) olib tashlanadi. Qolgan bo‘lak — tashqi kurak

STANDARTLAR INSTITUTI #NZO8J4IOUN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

(4044-mahsulot) kurak va yelkadosh suyaklari bo‘g‘imi orqali o‘tuvchi ajratuvchi kesim (bosh tomondan dum tomonga qarab) yordamida ikkita bo‘lakka bo‘linadi.

*Kurakning pastki yarim bo‘lagi * 4050–4055*

(6 qovurg‘ali 4050, 5 qovurg‘ali 4051, 4 qovurg‘ali 4052, 3 qovurg‘ali 4053, 2 qovurg‘ali 4054, 1 qovurg‘ali 4055)

Kurakning pastki yarim bo‘lagi to‘g‘ri burchakli kesilgan kurak bo‘lagidan (4029-mahsulot) tayyorlanadi. Kurakning pastki yarim bo‘lagi yuqori yarim bo‘lakdan yelka bo‘g‘imidan orqa tomonda, bel va kurakni ajratish chizig‘iga taxminan vertikal to‘g‘ri kesim orqali ajratiladi. Bo‘yin suyaklari, qovurg‘alar, ko‘krak suyaklari, tegishli tog‘aylar va ko‘krak qavati (asosiy buklangan chiziq bo‘ylab) olib tashlanishi shart. Yog‘ va teri orqa chetdagi lahm go‘sht darajasiga yetkazib yo‘nib qiyshaytiriladi.

Belgilanishi kerak bo‘lgan xususiyatlar:

· Oyoq saqlab qolingan;

· Teri olib tashlangan;

* Savdo tavsiflarida piknik-kurak (shoulder-picnic) deb ko‘rsatilishi mumkin.

*Kurakning yuqori yarim bo‘lagi * 4059–4062*

(4 qovurg‘ali 4059, 3 qovurg‘ali 4060, 2 qovurg‘ali 4061, 1 qovurg‘ali 4062)

Kurakning yuqori yarim bo‘lagi to‘g‘ri burchakli kesilgan kurak bo‘lagidan (4029-mahsulot) tayyorlanadi. Kurakning yuqori yarim bo‘lagi pastki yarim bo‘lakdan bel va kurakni ajratish chizig‘iga taxminan vertikal to‘g‘ri kesim orqali ajratiladi. Yog‘ va teri orqa chetdagi lahm go‘sht darajasiga yetkazib yo‘nib qiyshaytiriladi. Barcha suyaklar va tog‘aylar olib tashlanadi. Boshqacha ko‘rsatilmagan bo‘lsa, teri saqlab qolinadi.

Belgilanishi kerak bo‘lgan xususiyatlar:

· Teri olib tashlangan;

· Kurak suyagi va tegishli tog‘ay olib tashlangan;

* Savdo tavsiflarida bo‘yin-kurak bo‘lagi (butt) yoki kurakning yuqori suyaksiz bo‘lagi (collar butt) deb ko‘rsatilishi mumkin.

Ichki kurak bo‘lagi 4046–4049/4063

(1 qovurg‘ali 4046, 2 qovurg‘ali 4047, 3 qovurg‘ali 4048, 4 qovurg‘ali 4049, 5 qovurg‘ali 4063)

Ichki kurak bo‘lagi uzun bel bo‘lagidan (kurak suyagi olib tashlangan) (4108-mahsulot) tayyorlanadi hamda belning bosh old chorak bo‘lagi hisoblanib, belgilangan qovurg‘a bo‘ylab olib tashlanadi.

Belgilanishi kerak bo‘lgan xususiyatlar:

· Qovurg‘alar soni;

· Ko‘krak bo‘lagini olib tashlash va umurtqagacha bo‘lgan masofa;

· Yog‘ olib tashlangan.

*Kurakning yuqori yarim bo‘lagi (suyaksiz) * 4245*

STANDARTLAR INSTITUTI #NZO8J4IOUN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Suyaksiz kurakning yuqori yarim bo‘lagi suyakli kurakning yuqori yarim bo‘lagidan (4059-mahsulot) barcha suyaklar, tog‘aylar va terini olib tashlash orqali tayyorlanadi. Bo‘yin-kurak bo‘lagi kurakning pastki yarim bo‘lagi olib tashlangandan so‘ng qolgan orqa bo‘lagidir.

Belgilanishi kerak bo‘lgan xususiyatlar:

· Go‘shtning o‘zak bo‘lagidan dumlangan bo‘lagining uzunligi;

* Savdo tavsiflarida bo‘yin-kurak bo‘lagi (butt) yoki kurakning yuqori suyaksiz bo‘lagi (collar butt) deb ko‘rsatilishi mumkin.

Ichki kurak bo‘lagi (suyaksiz) 4241

Suyaksiz ichki kurak bo‘lagi ichki kurak bo‘lagidan (4046-mahsulot) barcha suyak, tog‘ay va sirtqi yog‘ni olib tashlash orqali tayyorlanadi.

*Bo‘yin-kurak bo‘lagi — Maxsus ishlov berilgan * 4240*

Bo‘yin-kurak bo‘lagi yoki maxsus ishlov berilgan bo‘yin-kurak bo‘lagi suyakli kurakning yuqori yarim bo‘lagidan (4059-mahsulot) qovurg‘alar, ko‘krak va bo‘yin umurtqalari hamda kurakning pastki yarim bo‘lagini olib tashlash orqali tayyorlanadi. Bo‘yin-kurak bo‘lagi kurakning pastki yarim bo‘lagi olib tashlangandan so‘ng qolgan orqa bo‘lakdir. Barcha suyak va tog‘aylar olib tashlanadi. Bo‘yin-kurak bo‘lagi sirtidan teri olib tashlanadi. Bo‘yin-kurak bo‘lagining butun uzunligi bo‘ylab orqa chetiga yonma-yon ravishda kesimning yon yuzasida yog‘ qatlami saqlab qolinadi. Saqlab qolinadigan yog‘ qatlamining kengligi va qalinligi ko‘rsatiladi.

Belgilanishi kerak bo‘lgan xususiyatlar:

· Yog‘ qoplamasiga qo‘yiladigan talablar;

· Yog‘ni yo‘nib tozalash darajasi;

· Go‘shtning o‘zak bo‘lagidan dumlangan bo‘lagigacha bo‘lgan masofa uzunligi.

* Savdo tavsiflarida bo‘yin-kurak bo‘lagi yoki bo‘yin-kurak bo‘lagi — maxsus ishlov berilgan deb ko‘rsatilishi mumkin.

Suyaksiz cho‘chqa bo‘yin-qorin ruleti

Cho‘chqa bo‘yin bo‘lagi 4240-mahsulot — Bo‘yin-kurak bo‘lagi — Maxsus ishlov berilgan hisoblanadi.

Suyaksiz qorin bo‘lagi (4329- 4332-mahsulot, 3-uslub) bo‘yin bo‘lagini qorin ichiga o‘rash imkonini beradigan darajada talab qilingan kenglikda tayyorlanadi.

Qorin bo‘lagi eng uzun chetiga gorizontal ravishda 10 mm oralig‘ida tilinadi hamda to‘liq bo‘yin-kurak bo‘lagining ustiga yotqizilib, bir xil masofadagi iplar bilan bog‘lanadi.

Kurakning ko‘krak mushagi 4180

Kurakning ko‘krak mushagi cho‘chqa kurak bo‘lagining ko‘krak bo‘lagidan olinadigan chuqur ko‘krak mushagi hamda yuzaki ko‘krak mushagidan iborat. U kurakning ichki va tashqi bo‘laklarini ajratish paytida ochiladi hamda kurakning pastki bo‘lagining ichki tarafida joylashgan bo‘ladi.

Kurakning katta yumaloq mushagi 4181

STANDARTLAR INSTITUTI #NZO8J4IOUN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Kurakning katta yumaloq mushagi tashqi kurakning ichki tomonidan olib tashlanadi. U bevosita kurak suyagidan pastki tomonda joylashgan. U tutash mushaklardan tabiiy choklar bo‘ylab kesib olish orqali ajratiladi.

Kurakning ventral tishli mushagi 4182

Kurakning pastki tishli mushagi kurakning yuqori va ichki bo‘laklaridagi pastki tishli mushakdan iborat. U tutash mushaklardan tabiiy choklar bo‘ylab kesish orqali olib tashlanadi.

Kurakning yostiqsimon lahm bo‘lagi 4183

Kurakning yostiqsimon lahm bo‘lagi kurakning pastki yarim bo‘lagidagi yelkaning uch boshli mushaklaridan iborat bo‘ladi va amalda yog‘dan xoli bo‘lishi kerak. Paylar lahm go‘sht darajasigacha tekis yo‘nib tozalanishi kerak.

Kurak qovurg‘alari 4165–4167

(4 qovurg‘ali 4165, 3 qovurg‘ali 4166, 2 qovurg‘ali 4167)

Kurak qovurg‘alari tashqi kurak bo‘lagidan (4045-mahsulot) olinadi hamda yo‘nib tozalashning uchta ixtiyoriy darajasiga ega bo‘lishi mumkin:

· Ishlov berilmagan — chuqur ko‘krak mushagi saqlab qolingan;

· Qisman ishlov berilgan — chuqur ko‘krak mushagi ostki lahm go‘shtni saqlagan holda yo‘nib tozalangan;

· To‘liq ishlov berilgan — kurak qovurg‘alarining ostki yuzasidagi barcha lahm go‘sht yo‘nib tozalangan.

Belgilanishi kerak bo‘lgan xususiyatlar:

· Ko‘krak suyagi saqlab qolingan

Jag‘-yaqiq bo‘lagi 4350

Jag‘-yaqiq bo‘lagi kurak bo‘lagidan bel tarafga taxminan yonma-yon to‘g‘ri kesim orqali olib tashlanadi. Jag‘-yaqiq bo‘laklari yetarlicha to‘rtburchak shaklda bo‘lishi hamda yon va uch tomonlari kamida yetarlicha to‘g‘ri burchakli qilib tekislangan bo‘lishi kerak. Jag‘-yaqiq bo‘lagi sirtqi bezli va bo‘shashgan to‘qimalar, teri hamda qonli dog‘larni diqqat bilan tozalash orqali ishlov beriladi.

Belgilanishi kerak bo‘lgan xususiyatlar:

· Teri olib tashlangan;

· Bo‘lakning minimal o‘lchami;

· Paylardan tozalangan (ochiq qolgan qalin (noshaffof) biriktiruvchi to‘qimalar hamda boldirlarning payli uchlari olib tashlangan).

Old oyoq go‘shti / Old poycha 4170

Old oyoq go‘shti old chorakdan (4021-mahsulot) oldingi oyoqni bilak-kaft va tirsak suyaklari bo‘g‘imida kesib olish hamda old oyoq go‘shtni kurakdan tirsak va yelkadosh suyaklari orqali ajratib olish yo‘li bilan tayyorlanadi. Terisi saqlab qolinadi.

Belgilanishi kerak bo‘lgan xususiyatlar:

· Teri olib tashlangan.

Old poychalar (Oyoqlar) 4175

STANDARTLAR INSTITUTI #NZO8J4IOUN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Old poychalar (oyoqlar) old chorakdan (4021-mahsulot) bilak-kaft bo‘g‘imida oldingi poychani (oyoqni) kurakdan ajratish orqali tayyorlanadi. Old poychalar amalda tuklar va tuk ildizlaridan xoli bo‘lishi kerak. Terisi saqlab qolinadi.

Belgilanishi kerak bo‘lgan xususiyatlar:

· Teri olib tashlangan.

Go‘sht qirqimlari 4470

Go‘sht qirqimlari istalgan go‘sht bo‘lagidan tayyorlanadi. Go‘sht qirqimlari suyaklar, tog‘aylar, teri, pigmentli (qora dog‘li) sut bezi to‘qimalari va limfa tugunlaridan (shu jumladan, son oldi, tizzasobi, kurak oldi va boshqa ochiq limfa tugunlaridan) xoli bo‘lishi kerak.

Belgilanishi kerak bo‘lgan xususiyatlar:

· Teri olib tashlangan;

· Kimyoviy usulda aniqlanadigan lahm go‘sht miqdori.

Kurak yog‘i 7680

Kurak yog‘i kurak bo‘lagidan olinadigan (ajratib olinadigan) teri osti yog‘ qatlamidir.

STANDARTLAR INSTITUTI #NZO8J4IOUN - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI